

III IULLA BEKJON RAHMON O'G'LI,
MUHAMMAD YUSUF DEVONZODA



**XORAZM
MUSIQIY TARIXCHASI**

MULLA BEKJON RAHMON O'G'LI,
MUHAMMAD YUSUF DEVONZODA

**XORAZM MUSIQIY
TARIXCHASI**



Toshkent
«MUMTOZ SO'Z»
2014

UO'D: 821.512.133
KBK: 84(5Y)1

Biz Mulla Bekjon Rahmon o'g'li va Muhammad Yusuf Devonzoda tomonidan yozilgan "Xorazm musiqiy tarixchasi"ning dastlabki matnini saqlagan holda adabiy tilga moslashtirdik hamda keyingi nashrlardagi ba'zi xato va kamchiliklarni baholi qudrat tuzatishga harakat qildik. Ushbu nashr yosh musiqashunoslarning maqola va sharhlaridagi kitob mualliflari to'g'risidagi ma'lumotlar hamda izohlar bilan to'ldirildi.

Shuningdek, "Tarixcha"ga aloqador bo'lgan musiqashunos olimlar va tarixiy shaxslar hamda cholg'ular rasmlari kiritildi.

Risoladan O'zbekiston davlat konservatoriyasi va boshqa musiqa o'quv yurtlarida qollanma sifatida foydalanish mumkin.

Kitob keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Nashrga tayyorlovchi:

O'zbekiston davlat konservatoriyasi
professori v.b., san'atshunoslik fanlari nomzodi,
Botir MATYOQUBOV

Mas'ul muharrir:

Filologiya fanlari doktori, professor
Hamidulla BOLTABOEV

Taqrizchilar:

B.M.Rahimov,

Urganch davlat universiteti Filologiya va
san'at fakulteti katta o'qituvchisi,

B.Sh.Ashurov,

O'zbekiston davlat konservatoriyasi Ixtisoslashgan
ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimi

O'zbekiston davlat konservatoriyasi Ilmiy-uslubiy
kengashining 2014 yil 16 apreldagi majlisida nashrga tavsiya etilgan
(6-sonli bayonnoma)

ISBN 978-9943-398-87-0

© "MUMTOZ SO'Z", 2014

XX ASR O'ZBEK MUSIQASHUNOSLIGINING ILK NAMUNASI (SO'ZBOSHI O'RNIDA)

Mulla Bekjon Rahmon o'g'li (Bekjon Rahmonov) va Muhammad Yusuf Devonzoda (Matyusuf Xarrotov) qalamiga mansub "Xorazm musiqiy tarixchasi" xonliklar tugatilib, yangi davrga o'tish paytida yuzaga kelgan ilk risola. Bu asar faqatgina yangi tarix nishonasi bo'lganligi uchun emas, balki boshqa ilmiy-estetik jihatlar bilan ham diqqatga sazovordir. Davr ehtiyojlari bilan sug'orilgan hamda o'zbek adabiy tilida bitilgan ixcham va purma'no musiqiy risola Sharq musiqiyshunosligining odatlariga vorisiylik kesimida ham o'z sohasining bilimdonlari tomonidan yaratilgan nodir asar sifatida e'tiborli. Shuning uchun asardan o'rin olgan hujjat va ma'lumotlar aksariyati bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Bekjon Rahmonov (1887-1937) XX asr boshlarida Xorazmda qizg'in faoliyat yurgizgan milliy ma'rifatchilarning yorqin namoyandasi, yirik davlat arbobi, iste'dodli olim va adabiyotshunos. U Xivada madrasani tugatgandan keyin 1913-1918 yillarda Istanbul seminariyasida ta'lim olgan va Fitrat, Abdurahmon Sa'diy, Usmon Xo'ja kabi o'z davrining ilg'or vakillari bilan yaqin munosabatlarda bo'lgan.

Matyusuf Xarrotov (1889-1952) ziyoli oilada tarbiya topgan sozanda, musiqiyshunos va shoir. Adabiy tahallusi "Chokar". Uning otasi Muhammad Yoqub (Matyoqub) Xarrat (1864-1939) xon saroyining yetuk xattoti, sozanda va maqomshunosi. U tanbur chizig'ining nodir nusxalarini yaratishda ham faol ishtirok etgan. Xorazm tanbur chizig'ining Matyoqub Xarrat tomonidan amalga oshirilgan ikki jildlik hashamatli qo'lyozmasi O'zbekiston davlat arxivida saqlanmoqda. Matyusuf Xarrotov Muhammad Yusuf Doyiy qo'lida madrasa ta'limini o'tadi. Sozanda va musiqiyshunos bo'lib yetishishda, avvalo, otasi, keyinchalik saroy cholg'uchilarining sardori – qalandar Do'nmasdan bilim oldi.

Xorazm musiqiy tarixchasi kitobining dunyoga kelishida ikki komil san'atkor hamkorligining o'zi alohida diqqatga sazavor voqeadir. Qiziqarli tomoni shundaki, "...tarixcha" va Fitratning "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" asari yagona talabgor – O'zbeklarni o'rganish qo'mitasining topshirig'iga binoan amalga oshirilgan. Birinchisi, 1924 yilda Xivada tugallanib, 1925 yilda Moskvada chop etilgan. Ikkinchisi, 1926 yilda Samarqandda yozilib, 1927 yilda Toshkentda nashr qilingan.

Ikkovi ham o'zbek tilida bitilib, ushbu davrda joriy etilgan arab alifbosida bosilgan¹.

"Xorazm musiqiy tarixchasi" hamda "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" kitoblari turli sharoitlarda yozilib, boshqa-boshqa ehtiyojlarga qarata yuzaga kelgan bo'lsa-da, ular orasida yaqin ichki munosabatlar mavjud. Bu ikki asar bir-birini to'ldiradi. Ammo risolalarning ma'no-mohiyati o'zgacha va mustaqil ekanligini ham e'tirof etmoq lozim. Aslini olganda mazkur tadqiqotlar o'ziga xosligi, Sharq musiqiy ilmining qadimdan muvoziy (parallel) ravishda rivojlanib kelayotgan ikki oqimi bilan bog'liq.

Forobiy, Ibn Sino kabi ilmi musiqiy bobokalonlarining asarlarida bu ikki fan "amaliy musiqiy san'ati" va "nazariy musiqiy san'ati" deb yuritilgan. Ularning orasida o'tib bo'lmaydigan to'siq yo'q, albatta. Shu bilan birga ularning har birining o'ziga xos uslubi, atama va tushunchalar doirasi mavjudligini ham inkor etib bo'lmaydi. Masalan, temuriylar davri tamaddunida musiqiyda "ilmi advor" ta'limoti ustivor ahamiyat kasb etgan. Ushbu zamon mutafakkirlarining merosida, jumladan, hazrat Alisher Navoiy asarlarida "musiqiy" iborasi, eng avvalo, uning negizidagi nazariy ilmlarni, "soz" tushunchasi amaliy bilimlarni ko'zda tutganligini kuzatamiz. XVI asrdan e'tiboran, bizda musiqiyda nazariy ilmlar salohiyati pasayib, amaliy bilim ahli oldinga chiqqanligi ko'zga tashlanadi. Shu munosabat bilan musiqiyda "ustoz" tushunchasi ko'proq ishlatiladigan bo'ldi. XIX asrga kelib, Xorazmda amaliy bilim sohiblariga nisbatan "musiqiyshunos" atamasi rasm bo'ldi.

Bekjon Rahmonov, Matyusuf Xarrotov va Fitrat asarlarida ham "musiqiyshunos" so'zi ko'p ishlatiladi. Lekin ularning har birida asar mohiyatidan kelib chiqqan holda, bu atama boshqacha ma'no kasb etadi. Birida amaliy bilimlar, ikkinchisida nazariy ilmlar ko'zda tutiladi. Fikrimizni dalillash maqsadida, bu asarlardan iqtiboslar olib, ularni qisqa izohlab o'taylik.

Xorazm musiqiy tarixchasining "Mualliflardan" deyilgan faslida "...kitobda, asosan, Xorazm musiqiyshunos o'tgan davrlardagi ahvoli, maqomlarning taqsimlanishi va usullari hamda musiqiyshunos shaxslarning tarjimai hollari haqida fikr yuritiladi" deb yozilgan². Darhaqiqat, butun asar kontekstida o'qimishli musiqiy ustozlar barchasi

¹Mulla Bekjon Rahmon o'gli, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. - Moskva, 1925; Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. - Toshkent-Samarqand, 1927.

²Xorazm musiqiy tarixchasi. B.3.

Buxoro "Shashmaqom"ining parda, usul va tasnifot asoslarini puxta o'zlashtirib, Xorazmda yangi ijodiy muvodil (model) joriy etgan Niyozjon Xo'jadan tortib barcha etuk ustozlar Xudaybergan Muhrkan, Komil Xorazmiy, Muhammad Rasul Mirzo, Muhammad Yoqub Xarrotlarga "musiqiyshunos" sifatida nisbat beriladi.

"O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" "Muqaddima"sida Fitrat yozadi: "O'zbeklarni o'rganish qo'mitasi so'nggi yillarda o'zbek tiliga, adabiyoti va tarixiga oid anchagina ma'lumot to'plab, yaxshigina ilmiy natijalar chiqarishga muvaffaq bo'lsa-da, o'zbek musiqamizga tegishli jiddiy tatabbu'otda (hozirgi "izlanishlar" tabiyisi - Alibek Rustam izohi) bo'lina olmadi. Buning asosiy sababi bizda bu sohada ishlay olaturgan, ya'ni asliy ma'noda musiqa nazariyasini bilaturgan va Sharq musiqasining xususiyatlariga voqif musiqiyshunoslarning yo'qligidir"³.

Keltirilgan iqtiboslarni qiyoslashdan ma'lum bo'ladiki, tilga olingan kitoblarning ichki mazmuni turli yo'nalishlarga qaratilgan. Ularning birinchisida musiqiyning nazariy asoslari, uning negizidagi unsur (nagma, bo'd, jins, jam) larning ob'yektiv qonuniyatlariga oid masalalar, umuman, tilga olinmaydi. Kitob boshdan oxir Xorazm musiqiyshunosining xotira ilg'aydigan yaqin o'tmishda kechirgan hayoti, amaldagi musiqiy navlarning ta'rifu tafsilotlari haqida bayon etadi. Hikoyalarning tarixiy doirasi, asosan, so'nggi yarim asr bilan cheklanganligini inobatga olib, uning mazmuniga muvofiq "Xorazm musiqiy tarixchasi" deb nom beriladi. Fikrimizcha, bu mualliflarning ijodiy salohiyatidan darak beruvchi, to'g'ri va munosib sarlavha.

Fitrat tadqiqotida nazariyot masalalari oldinga chiqarilib, amaliyot tarix ikkinchi o'ringa olinadi. Shu tufayli asar "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" deyilgan. Bu ham olimning yuksak ilmiy salohiyatidan darak beruvchi sarlavha. Gap, albatta, faqat nomlanishda emas. Balki ko'proq uning ichki mazmunidadir. Kitobning "Sharq musiqasi" deb nomlanuvchi birinchi fasli quyidagi jumlar bilan boshlanadi: "Bizda "G'arb musiqasi"ga qarshi "Sharq musiqasi" degan so'z yuradir. Bu kun bu so'zdan anglashilgan ma'no turk, arab, fors millatlarining musiqalaridir. Yuqoridagi ma'noda olingan Sharq musiqasi asos nazariya e'tibori bilan birdir"⁴.

Mazkur qarashni Fitrat musiqiy ta'limotining kaliti deyish mumkin. Zero, butun Sharq musiqasi va birinchi navbatda, uning oliy klassik navi

³O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. B.3.

⁴Ko'rsatilgan asar. B.5.

– maqomlar aynan shu tamoyilga tayanadi. Klassik muzikamizning o‘q ildizini aynan shu nazariyot tashkil qiladi. Asrlar davomida shunday bo‘lib kelgan. Bugungi amaldagi maqomot tizimi ham aynan shu qonuniyatlarga asoslanadi. Bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, klassik musiqamiz aql-idrok yo‘li bilan sarhisob etilgan nazariy asoslardan boshlanadi. Bu haqiqatga amal qilgan alloma, o‘zbek klassik musiqasining nazariy asoslarini o‘rganishga kirishar ekan, XX asrning boshlariga kelib bu sohadagi ayanchli holatni qayd etadi: “Essizlarkim, el ashulalarimiz, el kuylarimizdagi bu “ohang” (kuy tarkibidagi dastlabki hujayralar, intonatsiya – O.M.) bizning tomonimizdan tekshirilmagan. Hattoki xalq she‘rlaridagi barmoq vaznining turli shakllarini belgilash yo‘lida qurilgan ahamiyatsiz bir xizmat ham el kuylarimizning ohangi yo‘lida qurilmagan. Bu xizmatni men ham va‘da qila olmayman. Chunki bu to‘g‘rida qo‘limda bir vosita yo‘q, o‘zim cholg‘uchi, musiqiyshunos ham emasman. Meni musiqa bilan munosabatim shudir: o‘zimizni musiqamizni sevaman, ko‘b-da tinglayman, musiqamizga bo‘lgan shu muhabbatimning buyrug‘i bilan bu to‘g‘rida yozilgan eski-yangi asarlarni axtarib, topib tekshiraman. Bundan ortiq bir narsam yo‘q. Shu qadargina bir hozirlik bilan el kuylarimizning ohangini tekshirish yo‘lida, albatta, ish ko‘ra olmayman. Buni mendan kutish ham bo‘lmaydir”⁵. Mazkur sababdan, olim musiqa nazariyasining ichiga chuqur kirishni shu yerda to‘xtatib, amaliyotda qaror topgan qonun-qoidalarning tafsilotlarini bayon etishga o‘tadi.

Fitratdan farqli o‘laroq, “...tarixcha” mualliflarining qo‘lida ishonchli manbaa bor. U ham bo‘lsa tanbur chiziqlarida bitilgan Xorazm mumtoz musiqasining puxta va mukammal ishlangan nota matnlaridir. Tanbur chizig‘i vositasida yozilgan Xorazm Olti yarim maqomi va dutor maqomlarining matnlari mislsiz musiqiy yodgorlik. Unda bitilgan maqom majmualari nazariyot va amaliyot kesimida vujudga kelgan benazir manbaa. Sharq musiqa tarixida unga qiyos topish qiyin.

Tanbur notasi mohiyatan nazariy asoslarga tayanganligi shubhasiz. Bir tarafdan, u o‘ziga xos ilmiy risola vazifasini bajaradi. Ikkinchi tomondan, tanbur chizig‘i amaliyotda barqaror shakl olgan maqom majmualari bundan 130 yil oldin yozib olingan tarixiy hujjat. Hattoki XIV-XV asrlarda gullab-yashnagan ilmi advor ta‘limotining riyoziy (matematik) uslublarda sarhisob etilgan maqom-lad, usul va tasnifot birliklarining amaliy isbotlarini aynan shu matnlardan topishimiz mumkin.

⁵ Ko‘rsatilgan. B.10.

Qisqasi, Xorazm tanbur chizig‘i Sharq musiqiyshunosligining asrlar davomida mushtarak holda rivojlanib kelayotgan nazariy va amaliy bilimlarining o‘ziga xos qomusidir. Undan o‘tmish nazariyotning ko‘plab unsurlariga amaliy isbot topish mumkin. Ayni chog‘da, xatga tushirilgan matnlar, amaldagi maqomot udumlarida vorisiylik rishtalari ahamiyati naqadar kuchli ekanligidan dalolat beruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tanbur chizig‘ida bitilgan maqom matnlarining ahamiyatini his qilgan navqiron ustoz sozanda Matyusuf Xarratov va zakiy olim Bekjon Rahmonovlar, hujjatni o‘z tadqiqotining asosiy manbai sifatida ko‘radilar. Kirish faslida mualliflar bu to‘g‘rida quyidagilarni bayon etadilar: “...Xorazm musiqasi tarixini eng qadimgi davridan boshlab mufassal yoritish uchun yetarli darajada ma‘lumot va hujjatlarni to‘plash imkoni bo‘lmadi. Shunday bo‘lsa-da, Ko‘hna Urganch haqidagi tarixiy hikoyalardan va kekse musiqiyshunoslardan olgan ma‘lumotlarimiz hamda o‘zimiz ko‘pdan buyon to‘plagan dalillarimiz asosida Xorazm chiziqlariga suyanibgina ushbu kitobchani qoraladik”⁶. Asar yaratilishida Xorazm musiqiyshunosining mumtoz navi Olti yarim maqom asoslarini idroklashda hamda mualliflar qo‘li ostidagi ma‘lumot, hujjat va dalillarni mujassamlashda “Tanbur chizig‘i” ustuvor manbaa ekanligini ta‘kidlaydilar.

“Tanbur chizig‘i”ning qaysi nusxalari mualliflar qaramog‘ida bo‘lganligini aniq aytish qiyin. Har holda kitob nashrga tayyorlangan paytda Xorazm nota yozuvining dutor va surnay yo‘llari bitilgan nusxalari hali yuzaga kelmaganligi ayon. Mualliflarning bu xususdagi bir fikriga e‘tibor beraylik: “Mutaassifona bizlar yozgan bu “Tarixcha”da dutor va surnay nag‘malaridan bir qancha nag‘malarni ko‘rsata olmadik”⁷.

Darhaqiqat, “...tarixcha”da tanbur chizig‘i asosida Olti yarim maqomning tarkiboti batafsil tahlil etiladi. Amaldagi tushuncha va atamalarining aksariyatiga tegishli izohlar beriladi. Dutor va surnay yo‘llarining nota yozuvlari bo‘lmaganligi sababidan, mazkur masalalarda mualliflar, sozandalar orasida yurgan gap-so‘zlar bilan cheklanishga majbur bo‘ladilar.

Qanday bo‘lmasin, mualliflar to‘plagan og‘zaki ma‘lumotlar, ustuvor tushunchalarga oid tahlil va izohlar maqomshunoslikning keyingi taraqqiyoti uchun muhim zamin bo‘ldi. Xususan, Fitrat domla “Shashmaqom”ning umumiy muvodil (modeli)ni tuzishda “...tarixcha”ga ko‘p

⁶ Xorazm musiqiy tarixchasi B.3

⁷ Ko‘rsatilgan asar. B.3.

murojaat qiladi, uning andozalaridan ulgi oladi. Ayrim nuqtalarda bahsmunozara yuritsa-da, umuman olganda, asar salohiyatini yuqori baholaydi.

“Tarixcha” nashr etilgandan so‘ng ko‘p o‘tmay tanbur notasini amaliyotga joriy etish doirasini kengaytirish borasida barakali ishlar olib borildi. Bu say‘-harakatlarni amalga oshirishda “Tanbur chizig‘i”ning mumtoz nusxalarini yaratgan salaflarning munosib vorislari Muhammad Komil Devoniy (1887-1938) va Matyusuf Xarratovlar (1889-1952) maydonga chiqdilar.

Otashin shoir, zabardast san‘atkor va musiqiyshunos, benazir xattot va dutoriy Muhammad Komil Devoniy taxminan 1920-yillarning o‘rtalarida (har holda “...tarixcha” yozilgandan keyin) ustozlari Olti yarim maqomni notaga olgan andozada Dutor maqomlarini yozishga bel bog‘ladi. “Tarixcha”da qayd etilishicha, bu yo‘lda oldin ham urinishlar bo‘lgan. Xususan, mashhur dutoriy Muhammad Sharif Qambar (Qambar Bobo) dutor nag‘malarini o‘zicha xatga tushirmoqchi bo‘lgan. Biroq o‘ng qo‘l zarblarini ifodalash vositasi topilmaganligi vajidan bu ish amalga oshmay qolgan.

Masalani ravshanlashtirish uchun bir narsaga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq. Gap shundaki, tanbur noxun bilan chalinadi va oddiy qilib olganda, uning zarblari cheklangan bo‘ladi: yakka zarb, qo‘sh zarb, burama zarb (pirrang) va rez. Dutor o‘ng qo‘lning besh barmog‘i bilan silab, butun panja va bilak harakatlari ishtirokida oddiy, ufori, chap-ros, jimjilog‘ni dutor qopqog‘iga tekkizib uzluksiz rezda chalish va turli, rang-barang (dast) zarblar bilan ijro qilinadi. Bu jarayonda barmoqlarning bir-biriga qovushuvi, sozandaning san‘ati va ilhomiga bog‘liq sir-asror. Bundan, tanbur chalish dutorga qaraganda, osonroq ekan degan xulosa chiqarish kerak emas aslo. Masalan, Turg‘un Alimatov tanbur zarblarni shunday ulab qo‘yadiki, ularni qaysi biri yakka, qo‘sh, burama yoki rez ekanligini ajratish hayolga ham kelmaydi. Demak, gap yana o‘sha san‘atkorning mahorati va ilhomiga borib taqaladi.

Muhammad Komil Devoniyning ulug‘ligi shundaki, aql zakovat bilan tanbur chizig‘ining ilmiy-nazariy mohiyatini idroklab, serjilo kuy yo‘lining suduri (tarxi)ni oddiygina zarblarni anglatuvchi nuqtalar bilan ifodasini topgan. Olti yarim maqomni xatga tushirgan ustozlar didiga mos ravishda amaldagi Dutor maqomlarining yetti turkumini notaga yozib, o‘zidan ajoyib meros qoldirdi. San‘atkor qalamiga mansub “Dutor maqomlari” yozuvining ikki nusxasi bizgacha yetib kelgan va

ular qadimiy maqom qatlamlarini o‘rganishda tengsiz manbaa hisoblanadi⁸.

Taxminan 1930-yillarning boshlarida Muhammad Komil Devoniy do‘sti va maslakdoshi Matyusuf Xarrotov ishlaridan ilhomlanib, tanbur notasining iste‘mol doirasini yanada kengaytirish maqsadida surnay yo‘llarini yozib olishga jur‘at qiladi. 1920-yillarning oxirida Matyusuf Xarrotov Samarqand Musiqa va raqs institutida o‘qituvchilik bilan bir qatorda ilmiy faoliyatga ham jalb qilinadi. Institut rahbariyatining ko‘rsatmalariga muvofiq u Xorazm kuylarini evropacha nota tizimida yozib olish (ehtimol, institut rahbari N.N.Mironov vositasida) va tavsiflash ishlarini faollashtirdi.

1932-yil institut Toshkentga ko‘chirilib, yo‘nalishi tubdan o‘zgartirilgandan keyin ham M.Xarrotov ilmiy izlanishlarni davom ettiraverdi. Ayrim ma‘lumotlarga ko‘ra, u Xorazm musiqiy tarixiga oid yangi asar qo‘lyozmasini hozirlagan⁹. Bu qo‘lyozma bugungi kunda qayerda saqlanayotganligi ma‘lum emas. Ammo ushbu asar qoralamasi yozilgan daftar Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda.

“Xorazm musiqiy tarixchasi” kitobi bilan boshlangan xayrli ishlar afsuski uzoqqa bormadi. Bu yo‘lda say‘-harakat qilgan ma‘rifatchilar Bekjon Rahmonov, Muhammad Komil Devoniy hamda prof. Abdurauf Fitrat qatag‘on qurbonlari bo‘ldilar. Matyusuf Xarrotov ham mislsiz azob-uqubatlarni boshdan kechirdi. 1939 yilda otasi Matyoqub Xarrotov qatl qilingandan keyin u umrining oxirigacha xavf va qo‘rquv ostida yashadi.

Faqat Mustaqillik davriga kelib, milliy ma‘rifatchilar ruhi poklari obod etildi, madaniy meroslari qayta tiklana boshlandi. Shu yo‘sinda musiqiyshunos Botir Matyoqubovning g‘ayrati tufayli 1998 yilda “Xorazm musiqiy tarixchasi”ning kirill yozuviga o‘g‘irilgan nusxasi qayta nashr etildi. Qisqa muddat ichida istibdod davrida ta‘qib etilgan ko‘plab manbalar, xususan, “Tanbur chizig‘i”ning asliyati haqiqat yuzini ko‘rdi. Mazkur qadriyatlarini yuzaga chiqishi, “O‘zbek musiqasi” deb atalgan jaxonshumul voqelikning ildizlari naqadar teran ekanligining dalili bo‘lib xizmat qiladi.

⁸ Bu haqda batafsilroq ma‘lumotlar uchun qarang: Матякубов О., Болтаев Р., Аминов Х. Хоразм танбур чизиги. – Тошкент, 2009; Матякубов О. Истоки и принципы Хоразмской танбурной нотации. – Ташкент, 2013.

⁹ Юсупов Ю. Хоразм шоирлари. – Тошкент, 1967. Б.105-113.

Ustozlar ruhini shod etish, ular boshlagan yo'llarni davom ettirish hamda soyaga surilgan fikrlarni qayta tiklab, bugungi kun ehtiyojlariga qaratishdir. Ana shu savob ishni amalga oshirishda Botir Matyoqubov yana bir bor tashabbus ko'rsatmoqda. Oldingi nashrdan keyin o'tgan vaqt orasida u ancha bilim va tajriba orttirdi. Muhimi, amaliyotni puxta egallagan musiqiyshunos sifatida kamol topdi. Shundan e'tiboran "...tarixcha"da mulohaza etilgan fikrlar nashrga tayyorlovchiga tag-tubi bilan ayon. Qolaversa, mualliflar haqidagi ma'lumotlarning aks etganligi va dastlabki nashrdagi ayrim imlo va texnik nuqsonlarning tuzatilgani, shubhasiz, ushbu nashrning yutug'idir. Bu ma'lumot va hujjatlarni zamona ruhiga moslab, bugungi kitobxonlar diqqatiga havola etish esa yangi nashrdan ko'zlanayotgan asosiy maqsadlardan biridir.

Otanazar MATYOQUBOV,
san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor,
O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi

MUALLIFLARDAN

Buxoro xalq sho'rolar jumhuriyati xalq maorif nozirligi 1923-yil 18-noyabrda Xorazm ijtimoiy sho'rolar jumhuriyati maorif nozirligiga murojaat qilib, "Sharq musiqiy madaniyati" haqida bir ma'lumot tayyorlashni iltimos qilgan edi. Bu iltimosnomaga asosli javob tayyorlash masalasi nozirlik tomonidan bizlarga topshirilgan edi. Bu vazifani amalga oshirish uchun ko'p joylarga murojaat qilgan bo'lsak-da, Xorazm musiqasi tarixini eng qadimgi davridan boshlab mufassal yoritish uchun yetarli darajada ma'lumotlar va hujjatlarni to'plash imkoni bo'lmadi. Shunday bo'lsa-da, Ko'hna Urganch haqidagi tarixiy hikoyalar va keksa musiqiyshunoslardan olgan ma'lumotlarimiz hamda o'zimiz ko'pdan buyon to'plagan dalillarmiz asosida Xorazm chiziq-lariga suyanibgina ushbu kitobchani qoraladik. Har holda bizlar nashr ettirayotgan ushbu kitobchamiz garchi Xorazm musiqiy tarixi haqida to'la ma'lumot bermasa-da, unda Xorazm musiqasining bundan yarim asr ilgari ahvoli haqida anchagina ma'lumotlar berildi deb ayta olamiz. Mutaassifona bizlar yozgan bu "Tarixcha"da dutor va surnay nag'malaridan bir qancha nag'malarni ko'rsata olmadik. Kitobda, asosan, Xorazm musiqasining o'tgan davrlardagi ahvoli, maqomlarning taqsimlanishi va usullari hamda musiqiyshunos shaxslarning tarjimai hollari haqida fikr yuritiladi. Kitobimizni "Xorazm musiqiy tarixchasi" deb nomlashni lozim topdik. Tabiiyki, bu kitobcha Xorazm musiqasi haqida ilk marotaba yozilgan asar bo'lganligi sababli yo'l qo'rgan kamchiliklarimizni o'rtoqlarcha bizlarga bildirgan og'a-inilarimizga o'z minnatdorchiligimizni izhor qilishni burchimiz deb hisoblaymiz.

Mualliflar:

Mulla Bekjon Rahmon o'g'li,
Muhammad Yusuf Devon o'g'li.

1342-yil (Sichqon yili) 5-hamal (1924-yil 26-mart), Xiva




“Xorazm musiqiy tarixchasi”ning mualliflaridan biri
Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li rasmi.

Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li
Muhammad Yusuf Davron o‘g‘li
1942-yil (Sizilgan yil) 2-kanal (1924-yil 26-mart), Xorazm



“Xorazm musiqiy tarixchasi”ning
mualliflaridan biri Muhammad
Yusuf devonzoda rasmi.



Muhammad Yusuf devonzodaning
santur sozi chertqondagi rasmi.

XORAZM MUSIQIYSINING BIRINCHI DAVRI (XII asrdan XIX asr boshlarigacha)

Birinchi davr deb atashdan maqsadimiz, Xorazm musiqasining taxminan bundan besh yuz-olti yuz yil ilgari eng qorong'i zamonlaridagi ahvoli haqida fikr yuritish edi. Bu muddat ichida Xorazm musiqasining taraqqiyoti va rivojlanish yo'llari ochiq suratda namoyon bo'lmasa-da, ba'zi bizgacha yetib kelgan tarixiy asarlardan ma'lum bo'ladi, Xorazm poytaxti Ko'hna Urganch Chingizxon bosqiniga bo'lgan va ko'rkam shahar paytida uning aholisi ichida musiqani o'zlariga bir hunar va kasb aylagan kishilar ko'p bo'lgan.

Ular shu kasb orqasida o'z oilalarini tebratganlar. Mazkur asarlarda mubolag'aday ko'rsatiladi, Ko'hna Urganch shahrida dutor sozina eshak (xarrak) yo'nib (yasab, tuzatib) sotib, shu hunarlari orqali oila boqqan kishilarning miqdori bir mingga etishganligi ta'riflanadi. Albatta, bu raqam Xorazmning nufuziga qaraganda ko'p ko'rinishi mumkin. Ammo o'sha davrda Ko'hna Urganch shahri aholisi bir yarim million bo'lganini hisobga olsak, bu raqamni unchalik ham ishonarsiz deb bo'lmaydi.

Xorazmning obod zamonlarida yashagan va xorazmliklarning milliy pahlavonlaridan bo'lgan mashhur Yusufbek to'g'risida xalq orasida ko'plab rivoyatlar tildan-tilga o'tib yuradi. Yusufbek polvonlik bilan bir qatorda serzavq bir yigit bo'lib, sozandalikda ham mahorat sohibi ekan. Ko'hna Urganchning taniqli sozanda va go'yanda (ashulachi)lari har kuni uning majlisiga yig'ilib, sozu-suhbatlari bilan kunini o'tkazar ekanlar. Yusufbek dutor kuylarini(ng) barchasini bilibgina qolmasdan, boshqa sozandalarga qaraganda soz chertishdagi iqtidori baland ekan. Ul kishi sozga g'oyat ixlosmand bo'lganidan dutorni qo'lga olgach, o'zi bilgan aksari kuylarni charchagunicha chalib bo'lib, dutorini o'zining bazmgoh mehmonxonasini devoriga suyab qo'yar ekan. Hozir ham Yusufbekning o'sha bazmgoh mehmonxonasi xarobalaridan birgina devori saqlangan bo'lib, "uning tagida bir kecha tunab-yotib qolgan kishilarning quloqlariga har turli soz ovozlari eshitiladi", degan hikoyatlarga qaraganda ul zamonda Xorazmning yagona musiqiyshunosi Yusufbek bo'lib chiqadi.

Ul zamondagi musiqa asboblardan bizga ochiq bir suratda ma'lum bo'lgani dutor bo'lib, boshqa sozlar haqida biror so'z yozilgan va aytilgan bo'lmasa-da, fikrimizcha, ul zamondagi soz asboblari, umuman,

turkiy urug'lar orasida qo'llanilgan cholg'ular bo'lgani muqarrardir¹⁰. Bizning yuqorida bergan izohimizga qaraganda, Xorazm musiqasi taxminan Sulton Muhammad Qutbiddin va Jaloliddin Xorazmshoh zamonlarida ancha yuksaklikka ko'tarilganligi ma'lum. Bu davrdan to Xorazm musiqasi rivojining ikkinchi davrigacha bo'lgan yillarda Xorazm musiqasi va musiqiyshunosligi haqida batafsil ma'lumot berish ancha qiyin ish bo'lgani tufayli shu qisqa ma'lumotlar bilan cheklanishimizga to'g'ri keladi. Endi Xorazm musiqasi taraqqiyoti va tanazzul holatlarini ochiq va ravshan ko'rsatib beradigan ikkinchi bobga o'tamiz.

IKKINCHI DAVR

(hijriy 1221-1281/1803-1863 yillar)

Muhammad Rahimxon I zamonidan to Muhammad Rahimxon II (soniy) zamonigacha o'tgan oltmish yil Xorazm musiqasining ikkinchi davrini tashkil qiladi. Bu davrda qadimdan davom etib kelgan umumiy turkiy sozlar qo'llanilsa-da, yangidan davraga kirgan musiqiyshunoslar o'z mahorat va iqtidorlari bilan Xorazm musiqiyshunosiga yangi uslub va yo'llarni kirita boshladilar. Ko'pchilik ularning yangi uslublariga taqlid qilishga kirishgan va Xorazm musiqiyshunosi ancha taraqqiy etishga yuz tutgandi.

Xorazmda "Shashmaqom" nag'masining tarqalishi

Muhammad Rahimxon I zamonida (1805-1825) mashhur bo'lgan xivalik musiqiyshunos Niyozjon Xo'ja Buxoro shahriga borib, qadimgi "Shashmaqom"¹¹ nag'malarini tanbur sozi bilan o'rganib, Xivaga

¹⁰ Musiqa cholg'ulari – musiqa madaniyatining tarixiy taraqqiyoti jarayoni va darajasini aniqlashda ko'rgazmali hal etuvchi omillardan hisoblangan. XIV-XV asrlarda O'rta Osiyo va Xuroson xalqlarida ud, nay, g'ijjak, tanbur, dutor, chang, rubob, qo'biz, qonun, rud, chag'ona, daf, nag'ora cholg'ulari juda ko'p uchrashi to'g'risida Ishaq Rajabovning "Maqomlar" (nashrga tayyorlovchi va muharrir O.Ibragimov. T.: San'at, 2006. B.28-29) asarida ma'lumot berilgan.

¹¹ Shashmaqom so'zini Buxoro-Samarqand sheva-mahalliy uslubi ma'nosida tushunmoq kerak. Ammo uni mazkur uslubning maxsul sifatida talqin qilish noto'g'ri. Binobarin, Shashmaqomda boshqa mahalliy uslublar (Farg'ona-Toshkent, Xorazm va b.)ga xos jihatlardan tortib, mintaqaviy va undan-da kengroq miqyosda namoyon bo'luvchi badiiy qonuniyatlar o'z aksini topgan. Maqom va Shashmaqom hamda ozarbayjon mug'omlari bilan qiyosiy o'rganilishi (Юносов Р.Ю. Макомы и мугамы. Т., 1982); Eron maqomlari (Виноградов В.С. Классический традиции Иранской музыки. Москва, 1981); Uyg'ur muqomlarining 7 turi: III muqomlari, Qumul muqomlari, Do'lon muqomlari, Qashqar muqomlari, Xo'tan muqomlari, Turfon muqomlari, Ko'char muqomlari (Хошимов А.С. Уйғур касбий музыка анъаналари. Т., 2003); O'zbek-tojik Shashmaqomi va arab maqomlari o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlari

(Ф.Кароматли, Ю.Эльснер. Макам и маком // Музыка народов Азии и Африки. Вир. 4. М., 1984. С.88-135) kabi kitob va to'plamlarda ko'pchilik olimlar tomonidan o'rganib chiqilgan. Maqomlarni Hind rag'alari, turk klassik musiqasi va boshqa Sharq xalqlari klassik musiqalari bilan qiyosiy o'rganish ishlari davom etmoqda. Maqom va Shashmaqom haqida uzundan-uzoq sharh berish juda katta hajmdagi materialni tashkil qilgani sababli kitobxonlar e'tiborini Ishoq Rajabovning "Maqomlar" (nashrga tayyorlovchi va muharrir O.Ibrahimg'ulov. T.: San'at, 2006. B.63-260) va O.Matyoqubovning "Maqomot" (T.: Musiqa, 2004. B.49-64) kitobidagi «Maqomlar», «Shashmaqom» mavzulariga, O.Matyakubov, P.Boltaev, X.Aminovlarining «Хоразм танбур чизиги» (T.: Ўзбекистон давлат консерваторияси Ихтисослашган илмий-тадқиқот маркази, 2009) kitobiga qaratishlarini so'raymiz.

Bu haqda A.Fitrat o'zining "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" kitobida shunday deydi: "Tarixcha"ning bu so'zlaridan Xorazm o'lkasida birinchi Muhammad Rahimxon burun kuchli bir musiqiy bo'lmagan yo Shashmaqom bilinmagan ekan, kabi fikrlar anglashilmasun. Shu yanglish fikrni yo'lini to'smoq uchun "Tarixcha"ning boshlang'ichida shu so'z yozilg'on: "Chingizxon Ko'hna Urganchni xarob qilmasdan ilgari Ko'hna Urganch shahrida sokin odamlarning aksarisi musiqiy o'zlarina bir hunar va kasb ixtiyor qilganlar. Muning orqasida o'z oilalarining o'ngshiqlarini ta'min etgandirlar". Hurmatli muharrir o'rtoqlarimizning shu muhim so'zlariga qo'shilganimizni bildirmak uchun Navoiyni shohidlikka tortamiz. Mashhur Nizomiyning "Haft paykar" (Yetti sur'at) ismli forsiycha bir dostoni bor. Navoiy xuddi shu Nizomiyning mavzusini olib "Haft manzar" (Yetti ko'rinish) Sabba'i sayyor dostonini yozg'on. Nizomiy "Haft paykar"ning bir joyida Eronning tarixiy mashhur musiqashunosini gapirtiradir. Navoiy esa xuddi shu joyda bir musiqashunosni Xorazmdan keltirib gapka soladir:

Chun duo qildi, dedi farzona,
Ki, de o'z ko'rganimdin afsona.
Men-ki tushmish bu yon guzar manga,
Mulki Xorazm erur diyor manga,
San'atim anda soz chalmog' ishi,
Qilmayin men kibi ishimni kishi.
Ilmi advor fanni musiqiy,
Mendin ul ilm bo'ldi tahqiqiy

(Sabba'i sayyor)

Burungi zamonlarda ham musiqiy dunyosida Xorazmning yuksak o'runki bo'lganiga Navoiyning shu so'zlari aniqlik beradi (Ўзбек классик музикаси ва унинг тарихи. Иккинчи нашр Т., "Фан", 1993. 49 б.). Bundan tashqari, Olovuddin Muhammad Xorazmshoh davrida musiqi san'atining rivojlanganligi, Xorazm shohning o'zi ud cholg'usida chalishga moyil bo'lganligi, saroyda "Navba" va "Navbati-murattab" kabi turkumli asarlar chalinganligi haqidagi fikrlar diqqatga sazovordir (Matyoqubov O. "Maqomot". T., "Musiqa". 2004 y. 38 bet). Shuningdek, "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonidagi o'sha davrda navbalar tuzish (yaratish-bog'lash) udum bo'lganligini dalillash mumkin:

Oshiq bo'lg'an jondan umidin uzar,
Gejalar tinmayin navbalar duzar,
Ko'llarning ichinda g'arqildab gazar,
Yashil bosh so'nali g'ozlaring sani.

(Hudoyberganov S. "Soz va so'z sobibi". "Musiqa" T., 2011 y., 117 b)

Yana, XII-XVII asrlarda Xorazmda yashab o'tgan ko'pgina shoirlar o'z she'rlarida o'n ikki maqom tarkibidagi maqomlarning nomlarini keltirib o'tganlar. Shulardan Abdurahim Hofiz Xorazmiyning devonida:

Changni changinga olganda qilib ud ila soz,
Pardani Rost qil, ey mutribi Ushshoqnavoz.
Gar Sifahonda Navo topmasang, ey yori Buzrug,
Qilg'asan azmi Iroq aylab ohangi Hijoz.

qaytgan edi. Xivaga qaytishi bilan uning iqtidor va dovrug'i Xorazm musiqiyshunoslari orasida katta e'tiborga molik bo'ldi va ularning diqqatini o'ziga jalb qildi. Niyozjon Xo'jadan boshqalar, shu jumladan, Maxzumjon Qozi, Usta Muhammadjon Sandiqchi kabiylar Shashmaqom nag'malarini to'la o'rgandilar. Ular o'z o'rnida o'rgangan nag'malarini havaskor shogirdlariga ham o'rgatishni boshlab, anchagina tanburchi shogirdlarni yetishtirdilar. Bu sozandadan etishib chiqqan shogirdlarning har biri haqida batafsil ma'lumot berishni unchalik lozim topmaganimiz uchun ularning ichidan ba'zilarini tanishtirish bilan cheklanamiz. Niyozjon Xo'janing shogirdi bo'lgan Muhammadjon Sandiqchidan Abdusattor Mahram Xo'jash Mahram o'g'li ta'lim oldi. Bu kishi xalq va hukumat orasida obro'li bir zot bo'lgani sababli Shashmaqom nag'masi borgan sayin rivojlana boshladi.

Muhammad Rahimxon I zamonida ko'zga ko'ringan dongdor musiqiyshunoslar ana shu biz yuqorida zikr etgan zotlardir. Bu zamonda musiqi sohasida hech bir o'zgarishlar, yangiliklar o'rta tashlanmadi. Faqat bu zotlar Shashmaqom nag'masiga nisbatan xalq orasida ishtiyoq va muhabbat uyg'onishiga sabab bo'ldilar. Bundan keyin Muhammad Aminxon zamoni boshlanadi.

Yoki:

Oshiqona nolau gulbang etib chimgan aro,
Bulbuli oshuftani o'zing birla dam soz qil.
Rostiy, Ushshoqi bebargu Navog'a lutf etib,
Bu maqom ichra maqomi dilnavoz qil.

(Hofiz Xorazmiy "Devon". T., "O'zbekiston", 1981 y., 252 bet).
Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul asror" dostonining so'ngi so'zida:

Turk zuhridir ochunda bu kun,
Boshla uluq yir bila turkona un.
Rost qil ohangi Navou Hijoz,
Tuz yotug'on birla shudurg'unni soz.
Turk surudin tuzuk birla tuz.
Yaxshi ayolg'a bila ko'kla qo'buz.

("Асрлар нидоси" Хайдар Хоразмий "Гулшан ул-асрор". Т., Адабиёт ва санъат нашриёти. 1982. 40 б.)

Muhammad Niyoz Nishotiyning "Husni dil va Fuod" dostonida:

Onda nekim chang ediyu rud edi,
Nag'malari nag'mayi Dovud edi.
Barcha mug'anniy edi Iso nafas,
Lahn ila savt onlara jon erdi bas.

(Нисотий "Хусни дил ва Фуод" Т., Ғофур Ғулом нашриёти. 1977. 343 б.)

Deb o'n ikki maqomning bosh maqomlari, kuy va ashulalar hamda foydalanilgan cholg'ular nomlarini eslab o'tganlar. Shuningdek, boshqa shoirlarning she'r va dostonlarida ham Xorazm musiqiy taraqqiyotining birinchi davriga oid ma'lumotlarga asosan o'sha davrda Xorazmda mumtoz musiqi "ilmi advor", "musiqiy doira" negizlari mavjud bo'lganligi mualliflar va professor A.Fitrat izohlarini yanada mustahkamlaydi (B.M.).



Muhammad Aminxon zamon

Muhammad Aminxon musiqiyga shu darajada havas qo'ygan ediki, yuqorida nomlari zikr etilgan musiqiyshunoslar ishtirokida kuy-qo'shiq majlislarini tashkil etardi. Uning zamonida Abdusattor Mahramdan Usta Xudoybergan Etikchi, Usta Xudoybergan Etikchidan "Komil" taxallusli Pahlavon Niyoz Mirzaboshi Abdulla Mufti o'g'li Shashmaqom nag'malaridan mukammal ta'lim oldilar. 1853 (hijriy 1271) yilda Muhammad Aminxon Saraxs qal'asi qamali paytidagi jangda halok bo'lishi natijasida xalq orasida turli isyonlar, taxt uchun kurashlar boshlangani tufayli musiqiy sohasi ham turg'unlikka yuz tutdi.

Abdullohxon zamon

Bu xon Muhammad Aminxondan so'ng 1853 (hijriy 1271) yilda taxtga o'tirdi. Garchi Abdullohxonning o'zi tanbur va g'ijjak sozlarini chalishni bilsa-da, ammo musiqiy sohasidagi sustlik davom etdi.

Qutlimurodxon Abdullohbek o'g'li zamon

1854-(hijriy 1272) yilda Abdullohxon o'ldirilgandan so'ng uning o'g'li Qutlimurodxon taxtga o'tiradi. Besh oydan keyin bu xon ham o'ldiriladi. Shu zaylda musiqiy sohasi avvalgi sustligida davom etadi.

Sayyid Muhammadxon zamon

1854-yilda (hijriy 1272) Sayyid Muhammadxon Qutlimurodxon o'rniga xon etib tayinlandi va to'qqiz yil davomida xonlik qildi. Uning zamonida Xorazm o'lkasi bir oz tinch bo'ldi. Shuning natijasida xalq ichida va saroyda musiqiyga e'tibor ortdi. Bu xonning o'zi ham dutor, g'ijjak sozlarini chala olar va tez-tez yuqorida nomlari zikr etilgan musiqiyshunoslarni to'plab, kuy-qo'shiq majlislarini tashkil etardi. Biroq Sayyid Muhammadxon zamonida ko'zga ko'rinarli musiqiyshunoslar yetishib chiqmadi va xalq orasida birin-ketin turli isyonlar, g'alayonlar davom etib turishi bilan musiqiy sohasi ham keyingi darajaga tushib qoldi. Ba'zi qulay damlarda esa yana musiqiy sohasi avvalgi mavqeini egallab, unga e'tibor kuchayardi.

Muhammad Rahimxon Soniy zamon

1863-yili (hijriy 1281 yil) Sayyid Muhammadxon o'rniga taxtga o'tirgan Muhammad Rahimxon Soniy, musiqiy ilmiga o'ta darajada ixlosmand bo'lib, uning zamonida musiqiy sohasi o'zga bir rang, o'zga

bir hol kasb etdi. Ilgari xalq orasida musiqiyga qiziqish ozroq bo'lgan bo'lsa, endi musiqiy sohasi beqiyos tarqaladi. Milliy kuylarning vujudga kelishiga imkon tug'ildi. Xususiyy musiqiyshunos mutaxassislar yetishib chiqib, Shashmaqom nag'malarining "Mushkilot"¹², "Tasnif"¹³ qismlari ayri-ayri ahamiyat kasb etib, ularga taalluqli Shashmaqom nag'malari avvalgisidan ancha o'zgarib, necha qo'shimchalar qo'shib, tiklandi.

"Xorazm chizig'i"¹⁴ (nota)si ning ixtirosi

General Kaufman qo'mondonligi ostida kelgan rus qo'shini Xorazm o'lkasini boshdan oyoq istilo qilib, xonning mavqeini va hukmronligiga tahdid solganidan so'ng Muhammad Rahimxon Soniy o'ziga

¹² Mushkilot - (shaklning ko'pligi) Shashmaqom cholg'u bo'limlarining umumiy nomi; sof musiqiy shakl (Matyoqubov O. Maqomot. T.: Musiqa, 2004. B.351).

¹³ Tasnif - arabcha "yaratilgan asar", kuy degan ma'noni bildiradi. Bu haqda Ishoq Rajabovning "Maqomlar" (nashrga tayyorlovchi va muharrir O.Ibragimov. T.: San'at, 2006. B.171-172) kitobida keng ma'lumot berilgan.

¹⁴ Sharq xalqlarida abjad hisobi, harflar, raqam va turli belgilar orqali tabulatura (cholg'u asbobining dastasiga joylashgan chizma va belgilarda aks etishi)da musiqa ohangini qog'ozga tushirishga qadim zamonlardan harakatlar bo'lgan. Pahlavon Niyoz Komil Xorazmiy ham o'z davrining yetuk ziyolisi sifatida ushbu yozuvlardan xabardor bo'lgan va "Tanbur chizig'ini" o'sha manbaalarga tayangan holda yaratgan bo'lishi mumkin. Sho'ro inqilobidan keyin 1923 yili Xivada ochilgan musiqa maktabida Matyoqub Xarrot Devon o'z shogirdlariga "Tanbur chizig'i"dan dars bergan. O'z davrida Buxoro amiri saroy maqomchilari Ota Jalol Nosir o'g'li, Ota G'iyos Abdug'anilar tomonidan ijro qilinib, V.A.Uspenskiy tomonidan notaga tushirilgan, prof.A.Pitrat va N.N.Mironovlar rahbarligi va muharrirligida 1924 yili Moskvada chop etilgan "Shashmaqom" to'plamida "Tanbur chizig'i"dan foydalanilgan. (Navo maqomi 9-bet. 4-, 5-, 6-qatorlar; Dugoh maqomi 9-bet, "Sa'iyli Ashqulloh" kuyi to'liq ko'chirilgan (Шесть музыкальных поэм. М.: Изд. Народного Назирата Прос. Бухареспублики, 1924).

Keyinchalik, V.Belyaev, I.Akbarov, M.Ashrafiy "Tanbur chizig'i"ga murojaat qilganlar. Lekin barcha olimlarning urinishlari nazariy yondashish bo'lib, amaliyotda qo'llanilmagan. hozirgi davrda iste'dodli tanburchilar Ozod Bobonazarov va ayniqsa, Rustam Boltaevlarning bu boradagi izlanishlari ham nazariy va ham amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Hazoraspd yashab ijod etgan kitobdor Iskandar Mahmudma saqlangan va Komil Devoni tomonidan ko'chirilgan "Xorazm tanbur chizig'i"ning matni "Hazorasp" nusxasi deb nomlandi va ushbu nusxa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan 2002 yilda O'zbekiston davlat konservatoriyasi muzeyiga topshirildi. "Xorazm tanbur chizig'i"ning boshqa xattotlar tomonidan ko'chirilgan o'n yetti nusxasi "Hazorasp" nusxasi bilan taqqoslanib, mukammallashgan matn asosida O.Matyoqubov, R.Boltaev, H.Aminovlar tomonidan tayyorlangan kitob nashrdan chiqdi. Ushbu kitobdan O'zbekiston davlat konservatoriyasi an'anaviy ijrochilik kafedrasida professor-o'qituvchilari hamda talabalarining sozanda ansambllari dasturida o'quv materiali sifatida foydalanib kelinmoqda (masalan, o'qituvchi Ochilbek Matchonov "Tanbur chizig'i"dagi "Manzum" (Mushkulot)lardan "Tani maqomi Navo", "Tarona", "Ikkinchi Tarona", "Suvorayi Navo", "Talqini Mustahzod"larni ijro etib o'quv materiali sifatida audio yozuvlarni tayyorladi, dotsent Matrasul Matyoqubov boshliq sozandalar ansambli "Man-surlar"dan "Tani maqomi Rost", "Tarje'i Rost", "Muhammasi Ushshoq" asarlarini ijro etib o'quv materiali sifatida audio yozuvlarni yozishga tayyor qilishdi).

raqib bo'lgan qudratli yot bir kuchni ko'rgach, ancha vaqt g'amgin bo'lib yurdi. U o'ziga tasalli beradigan biror ish qilishdan ojiz edi. Biroq xonning atrofidagi kishilar, xususan, musiqiyshunos Pahlavon Niyoz Mirzaboshi xondagi bu kayfiyatni anglab, uni kuy va qo'shiq majlislari uyushtirishga qiziqirdi. Nihoyat, xon musiqiy bazmlari bilan taskin topib, natijada "Xorazm chizig'i" yuzaga kelib, Xorazm musiqiy anchagina rivojlandi hamda el orasida yoyila boshladi.

Muhammad Rahimxon Soniyning mirzaboshisi xonni doimo musiqiy ishlariga qiziqirmoq yo'lida tirishgani oqibatida xonning musiqiyga ishtiyoqi va orzusi ortib, shu darajaga yetadiki, uning fikri-zikri butun Shashmaqomni, unga bog'langan qo'shimchalar hamda milliy nag'malarni barchaga tushunarli tarzda, qulay va yengil chalmoq, o'rganmoq yo'llarini izlash, topish bilan band bo'ldi.


U Xorazm musiqiyshunoslari orasida "Kamil" tahallusi bilan mashhur bo'lgan Pahlavon Niyoz Mirzaboshiga qay tarzda bo'lsa-da, o'zining bu rejalarini ro'yobga chiqarishga amr qildi. Shuningdek, xon musiqiy asboblardan tanburning kuylarini har kim chala oladigan bir tadbir topishni ham buyurdi. Nihoyat Pahlavon Niyoz Mirzaboshi Muhammad Rahimxon Soniyning bu amrini o'zining mahorati va iqtidori bilan oz fursatda amalga oshirishga erishdi.

Pahlavon Niyoz Mirzaboshi o'zi mohir bo'lgan tanbur sozini ko'z oldiga keltirib, butun fikrini shu sozga qaratdi. Shu tariqa ishga kirishdi. Pahlavon Niyoz Mirzaboshi tanbur sozining tuzilishi, pardalarining joylashishi, quyi va yuqori pardalar orasidagi masofa darajalarini o'ziga dasturilamal qilib oldi.

Nihoyat, Pahlavon Niyoz Mirzaboshi o'zining g'oyasini o'rtaga tashlab hamda Muhammad Rahimxon Soniyning amrini bajarmoq uchun shu tariqa ixtiro etgan "chizig'i"ni isbot etmoqqa kirishdi. Avvaliga u "Rost" maqomini qoralamasini topshiradi. Bundan so'ng "Rost" maqomi tugab "Peshrav"¹⁵i boshlanadi. Pahlavon Niyoz Mirzaboshi shu maqomni qog'ozga ko'chirganida tanburning o'n sakkiz pardalariga o'girib, ya'ni parda oraliqlari masofalarining keng va torligiga qarab, gorizont chiziqqlar chizib, tanbur pardalarini belgilaydi. Har pardada shul maqomni usuliga muvofiq, ist ("pauza")lar bilan birga, pastdan va yuqoridan necha bor noxun urilgan bo'lsa, shu chizgan chizig'ining ostki va ustki taraflariga shul noxunlarning soni qadar nuqtalar qo'yib

¹⁵ Peshrav (forscha) - oldinda keluvchi; musiqiy shakl; cholg'u kuylarning rivojlanish tamoyili.

chiqadi. Mana shu usulda qoralamani chizib tugatib, Muhammad Rahimxon Soniyga taqdim etdi.



(Kamil Xorazmiy tomonidan ixtiro qilingan "Xorazm tanbur chizig'i"dan bir ko'rinish)

"Xorazm chizig'i" ning nashri, taraqqiyoti va isloh etilishi

Pahlavon Niyoz Mirzaboshi tarafidan ixtiro etilgan va yuqorida tafsiloti keltirilgan chiziq tartiboti Muhammad Rahimxon Soniyga taqdim etilgandan so'ng xon o'zining musiqiy muallimi bo'lmish "Mirzo" tahallusli mashhur musiqiyshunos Muhammad Rasul Mirzaboshi Pahlavon Niyoz Mirzaboshi o'g'liga butun Shashmaqom nag'malarini Pahlavon Niyoz Mirzaboshi tarafidan ixtiro etilgan chiziq (nota) yo'sini bo'yicha kitob holiga keltirishni buyurdi. Muhammad Rasul Mirzaboshi

xonning ushbu buyrug'ini amalga oshirmoq uchun bir necha oy sa'y-harakat qilib, butun Shashmaqom nag'malarini yuqoridagi tartibga muvofiq kitobga ko'chirdi. Shu tariqa Shashmaqom nag'malari chiziqli kitobini bitirib, ikki jilddan iborat bo'lgan musavvoda (savod chiqaruvchi darslik – B.M.) nusxasini xonga taqdim etdi. Xon bu nusxalarni o'zining mohir xattot kotiblaridan Xudoybergan Muhrkan, Mulla Ismoil, Muhammad Yusufbek va ular singari kotiblariga topshirib bir nechta qo'lyozma kitob tayyorlashni buyurdi.

Muhammad Rasul Mirzaboshi Shashmaqom nag'malarini Pahlavon Niyoz Mirzaboshi ixtiro etgan chizig'iga muvofiq kitobat qilish uchun quyidagi yo'lni tutdi: 1. Tasnif (Mansur). 2. Mushkilot (Manzum)¹⁶ qismlariga bo'ldi. Shashmaqom nag'malarining bir qismi xonandalar ijrosida bajarilsa, ikkinchi qismiga kirgan nag'malar esa aytimsiz faqat cholg'uda ijro etiladi. Ulardan biri chalinadigan kuylardan iborat bo'lsa, ikkinchisi xonandalar tomonidan aytiladigan nag'malardir.

Yana Muhammad Rasul Mirzaboshi Shashmaqom nag'malarini o'sha chiziqqa o'tkazmoqchi bo'lganida mana shu tomonini nazarda tutib, "Tasnif" qismiga kirgan butun nag'malarni alohida bir kitob qilib, "Mushkilot"ga oid bo'lgan nag'malarni ham alohida bir kitob qilib, ikki jildli chiziqli kitoblar nusxalarini yaratib, shu tariqa Shashmaqom nag'malarini butunlay chiziqqa o'tkazib tugalladi.

Mana shu tariqa vujudga kelgan chiziqli kitoblardan havaskor kishilar ham nusxa ko'chirib ola boshladilar. Pahlavon Niyoz Mirzaboshining ixtiro qilgan (nota)si o'zining o'g'li va shogirdi Muhammad Rasul Mirzaboshining g'ayrati natijasida xalq orasida tarqalib, ko'plab ixlosmandlar bu (nota) kitoblar vositasida Shashmaqom nag'malarini o'rganishga kirishdilar. Hozirda aksari kishilar bu (nota) kitoblaridan foydalanmoqdalar.

Xorazm yetti maqomi nag'malari va ularning usullari taqsimoti

Qadimdan ma'lum bo'lib kelgan Shashmaqom nag'malariga Xorazm musiqiyshunoslari bog'lagan turli nag'malarini yarim maqomga hisoblab, Shashmaqom nag'malarini olti yarim maqomga etkazildi. Ushbu olti yarim maqom nag'malari quyidagi maqomlarga bo'linadi:

¹⁶ Manzum – nazm etilgan, tizimga solingan. Mansur – nasr qilingan, «sochma tartibdagi asarlar birikmasi» ma'nolarni bildiradi. A. Fitrat "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" kitobining 11-betida "Tarixcha"da Mushkilot – manzum; Tasnif – mansur deb noto'g'ri qo'llanilganligini ko'rsatib o'tadi.

1. Rost maqomi.
2. Navo maqomi.
3. Segoh maqomi.
4. Dugoh maqomi.
5. Buzrug maqomi.
6. Iroq maqomi.
7. Panjgoh maqomi.

Bu taqsimotda "Rost" maqomidan hisoblangan "Panjgoh" nag'masi yarim maqom hisob etilib yuritilar edi. Biroq muni Muhammad Rasul Mirzaboshi o'z g'ayrati bilan unga bir necha nag'malarni qo'shib, butun maqomlar barobarida bir maqomga etkazib, shu tariqa Xorazmning nag'malarini yetti maqomga to'ldirdi.

Yuqorida keltirilgan maqomlarning har biri turli-turli nag'malarga bo'linadi. Masalan:

Rost maqomi

Mansurlari:

1. Maqomi Rost
2. Tarje'i Rost
3. Peshravi Garduni Rost
4. Murabbayi Komili Rost
5. Muhammasi Rost
6. Muhammasi jadidi Feruzi Rost
7. Musaddasi jadidi Feruzi Rost
8. Murabbayi Rosti Mirzo
9. Saqiyli Rost
10. Saqiyli Muhrkani Rost
11. Ufori Rost

Manzumlari:

12. Maqomi Rost
13. Taronayi Rost
14. Suvorayi Rost
15. Naqshi Rost
16. Talqini Rost
17. Nasri Ushshoqi Rost
18. Nasri Saboyi Rost
19. Ufori Rost

Navo maqomi

Mansurlari:

1. Maqomi Navo
2. Peshravi Navo
3. Peshravi Zanjiri Navo
4. Saqiyli Navo
5. Saqiyli Feruzshohi Navo
6. Muhammasi Navo
7. Muhammāsi Bayoti Navo
8. Nim Saqiyli Navo
9. Ufori Navo

Manzumli:

10. Maqomi Navo
11. Taronayi Navo
12. Suvorayi Navo
13. Talqini Mustahzodi Navo
14. Muqaddimayi Talqini Navo
15. Talqini Navo
16. Nasri Taronayi Xorazmiy Navo
17. Nasri Bayoti Navo
18. Naqshi Navo
19. Muqaddimayi Nasri Orazi Navo
20. Muqaddimayi Nasri Dugoh Husayniy Navo
21. Dugoh Husayni Navo
22. Suvorayi Dugoh Husayniy Navo
23. Talqini Dugoh Husayniy Navo
24. Birinchi Ufori Navo
25. Ikkinchi Ufori Navo

Segoh maqomi

Mansurlari:

1. Maqomi Segoh
2. Peshravi Segoh
3. Saqiyli Segoh
4. Saqiyli Feruzshohi Segoh
5. Se usuli Feruzshohi Segoh
6. Birinchi Muhammasi Segoh

7. ... (nuqtalar o'zni ochiq qoldirilgan)

8. Chor usuli Feruz
9. Hafifi Segoh
10. Ufori Segoh

Manzumli:

11. Maqomi Segoh
12. Taronayi avvali maqomi Segoh
13. Ikkinchi Taronayi Segoh
14. Uchinchi Taronayi Segoh
15. Muqaddimayi Talqini Segoh
16. Talqini Segoh
17. Muqaddimayi Nasri Hijozi Segoh
18. Nasri Hijozi Segoh
19. Nasri Navro'zi Xoroyi Segoh
20. Suvorayi Segoh
21. Naqshi Segoh
22. Taronayi Nasri Ajami Segoh
23. Nasri Ajami Segoh
24. Birinchi Ufori Segoh
24. Ikkinchi Ufori Segoh

Dugoh maqomi

Mansurlari:

1. Maqomi Dugoh
2. Tar'ei Dugoh
3. Birinchi Peshravi Dugoh
4. Ikkinchi Peshravi Dugoh
5. Uchinchi Peshravi Dugoh
6. To'rtinchi Peshravi Dugoh
7. Zarbul Fathi Dugoh
8. Saqiyli Ashqulloh
9. Saqiyli Feruzshohiy
10. Birinchi Muhammasi Dugoh
11. Ikkinchi Muhammasi Dugoh
12. Uchinchi Muhammasi Dugoh
13. To'rtinchi Muhammasi Dugoh
14. Samoyi Dugoh

15. Pohtayi zarbi Dugoh (Foxtak zarb - B.M)
16. Ufori Dugoh

Manzumлари:

17. Maqomi Dugoh
18. Taronayi avvali Dugoh
19. Ikkinchi Taronayi Dugoh
20. Uchinchi Taronayi Dugoh
21. Muqaddimayi Nasri Hijozi Chorgoh
22. Nasri Chorgoh
23. Suvorayi maqomi Dugoh
24. Talqini Dugoh
25. Nasri Dugoh ham Muqaddimayi Nasri Oraz
26. Nasri Orazi Dugoh
27. Muqaddimayi Dugoh Husayni Dugoh
28. Nasri Dugoh Husayniyi Dugoh
29. Suvori Dugoh Husayniyi Dugoh
30. Talqini Dugoh Husayniyi Dugoh
31. Birinchi Ufori Dugoh
32. Ikkinchi Ufori Dugoh

Buzrug maqomi

Mansurlari:

1. Maqomi Buzrug
2. Birinchi Peshravi Buzrug
3. Ikkinchi Peshravi Buzrug
4. Uchinchi Peshravi Buzrug
5. Se usuli Buzrug
6. Muhammasi Buzrug
7. Muhammasi Feruzi Buzrug
8. Saqiyli Islimxonxo'ja
9. Saqiyli Niyozjonxo'ja
10. Saqiyli Sultoni Buzrug

Manzumлари:

11. Maqomi Buzrug
12. Birinchi Taronayi Buzrug
13. Ikkinchi Taronayi Buzrug

14. Uchinchi Taronayi Buzrug
15. To'rtinchi Taronayi Buzrug
16. Muqaddimayi Talqini Buzrug
17. Talqini Buzrug
18. Nasri Nasrulloyi maqomi Buzrug
19. Nasri Ajami maqomi Buzrug
20. Suvorayi maqomi Buzrug
21. Naqshi maqomi Buzrug
22. Muqaddimayi Nasri Uzzol
23. Nasri Uzzoli Buzrug
24. Ufori Buzrug

Iroq maqomi

1. Maqomi Iroq
2. Tarje' maqomi Iroq
3. Peshravi Iroq
4. Birinchi Muhammasi Feruzshohi Iroq
5. Ikkinchi Muhammasi Feruzshohi Iroq
6. Se usuli Iroq
7. Se usuli Iroq Feruzi Iroq
8. Birinchi Saqiyli Iroq
9. Saqiyli Niyozjonxo'ja
10. Ikkinchi Saqiyli Iroq
11. Naqshi Iroqi Nafurdam
12. Ufori Iroq

Bular ichida faqat "Nafurdam" nag'masi mushkilotlardan sanalib, qolganlari mansurlardirlar.

Panjgoh maqomi

1. Maqomi Panjgoh
2. Birinchi Peshravi Panjgoh
3. Ikkinchi Peshravi Panjgoh
4. Saqiyli Vazmini Panjgoh
5. Saqiyli Feruzshohi Panjgoh
6. Se usuli maqomi Panjgoh
7. Muhammasi Panjgoh
8. Muhammasi Ushshoqi Panjgoh

Bularning hammasi tasnif sanalib, boshqalari mansur nag'malaridir¹⁷.

Tanbur maqomlarining usullari¹⁸

Barcha tanbur maqomlarining ijrosi uchun o'lvohlar sifatida qabul qilingan "yo'g'on", "ingichka", "qisqa" va "cho'ziluvchan" tovushlarga taqlid qilinib, "taq-taqa-gup" so'zlari bilan ifoda qilganlar. Shu tariqa belgilardan va so'zlardan tuzilgan hay'atni usul deb nomlaganlar. Bunda "gup" – yo'g'on, "taq" – cho'ziq, "taqqa" qisqa-ingichka tovushlar nag'ma taqozosiga ko'ra "taq", "gup" belgilari ijro etilganda bular cho'zimiga teng keladigan tinish-pauza (ist) "*" belgisi bilan ifodalangan. Shu tariqa usul belgilari aniqlangan.

Usul uchun qabul etilgan ushbu uch xil tovushni doirada amalga oshirish quyidagicha bo'ladi: doirada "gup" tovushini chiqarmoq uchun barmoqlarni juftlab, to'rt barmoq bilan doiraga bir marotaba uriladi. "Taqqa" tovushini chiqarmoq uchun doiraga ikki barmoqni ketma-ket uriladi. "Taq" tovushini chiqarmoq uchun esa bir barmoq bilan uriladi.

1. Maqomi Rost usuli¹⁹: gup* taq*.
2. Tarje'i maqomi Rost usuli: taq gup gup.
3. Peshravi Rost usuli: gup taq taq gup* gup*.
4. Saqiyli Rost usuli: gup* taq taq gup* taqqa taqqa taq taq gup* taqqa taqqa gup* taq* gup* gup* taq* taqqa taq taqqa taq gup taq gup taq taqqa gup taq*.
5. Muhammasi Rost usuli: gup taqqa taq taq gup* taq gup taq* gup gup taq taqqa taqqa gup* taqqa taqqa gup* taq gup taq taq taq taq.
6. Suvori Rost usuli: gup* taqqa taqqa gup* taqqa taqqa taq taq gup* gup taq* taqqa taqqa gup.
7. Talqini Rost usuli: taqqa taq gup taq.
8. Se usuli: taq taq taq taq gup taqqa taq taq gup taq* gup taq gup gup taq taqqa taqqa gup* taq taqqa taqqa gup taq gup taq taq taq taq gup* taq taq gup* taq taq taq taq gup taq taq gup* gup taq* gup taq* gup taq gup taq* gup taq taq taq taq gup.

¹⁷ Ushbu jumlada chalkashlik mavjud ko'rinadi (B.M.).

¹⁸ Xorazm olti yarim maqomlarining asosiy jo'rnavoz sozi tanbur cholg'usi bo'lganligi sababli shunday atalgan.

¹⁹ "Tarixcha"da Rost usuli yoki "qadim zarb" - "gup" va "taq"ning har biridan keyin bir donadan "*" ist qo'yilgan. Bunda har bir choraklik taktning kuchli hissalariga doira zarbi va kuchsiz hissalariga pauza, ya'ni "ist" to'g'ri keladi. A.Fitrat "O'zbek klassik musiqasi va uning tarifi" kitobining 14-betida "ist" belgisi yangilish qo'yilganligini, bunday holatda asar sur'ati juda sustlashib ketishini aytadi.


9. Hafifi Segoh usuli: taqqa taqqa gup gup* taqqa taqqa gup gup* taqqa taqqa gup gup* taqqa taqqa gup gup taq.

10. Samoyi Dugoh usuli: gup gup taq* taqqa taqqa gup* taqqa taqqa gup* taq gup.

11. Paxta zarb Dugoh usuli: gup* taq.

12. Nasri Ushshoq usuli: gup gup taqqa gup taq (hamma nasrlarga qoqiladi).

13. Barcha Uforilar usuli: gup taqqa taqqa gup taq.



Usul uchun qo'llaniladigan (daf) doira sozi

Tanburning tuzilishi (akkordi)

Tanbur bilan barcha maqomlarni ijro etish uchun tanburni uch turli etib sozlanadi:


1. Rost maqomiga, Panjgoh maqomiga sozlamog uchun ikki yon tarafdagi torlarining erkin va tarangligi barobar qilinib, tovushlari birbirlariga teng, tik ohang (ikkalasi ham katta oktava "sol", unison – B.M.) bo'ladi. Ammo o'rta tori bo'shroq (salki, birinchi tor katta oktava "sol" – ikkinchi tor katta oktava "do" oraliq sozi kvinta - B.M.) bo'ladi.

2. Segoh maqomiga, Iroq maqomiga, Buzruk maqomiga, Dugoh maqomlari uchun, o'rtadagi tor Rost maqomiga qaraganda bir oz tarang (birinchi tor katta oktava "sol" – ikkinchi tor katta oktava "re" oraliq sozi kvarta – B.M) sozlanadi.

3. Navo maqomi uchun o'rtadagi tor yuqoridagi ikki turli sozlanishga qaraganda ham tarangroq tortiladi (birinchi tor katta oktava "sol" – ikkinchi tor katta oktava "fa", oraliq sozi katta sekunda – B.M).

Bu uch turli sozlanishda ham o'rtadagi torning tarangligi har ikki tarafdagi torlarning tarangligiga nisbatan bo'shroq bo'ladi. Shunday tarzda sozlangan tanburda xarrak (eshak)ning joylashadigan o'rni tanburning bosh tarafidan dastasiga qarab pastga uch barmoq hajmidagi o'lchamda bo'ladi.

Tanburning oltinchi pardasi Dugoh, Iroq, Buzrug maqomlarini chalganda yettinchi bilan oltinchi pardalarining o'rtasidagi oraliqning uchdan biri qadar pastga tushiriladi. Segoh, Navo, Rost maqomlarini chalganda mazkur oltinchi parda o'z o'rnida turadi.



Tanbur sozining uch tomondan ko'rinishi

Maqomlarning boshlanishi va tugashi²⁰

1. Rost maqomi, uchinchi pardadan boshlanib, shu pardada tamom bo'ladi.
2. Navo maqomi, oltinchi pardadan boshlanib, shunda tamom bo'ladi.
3. Segoh maqomi, to'rtinchi pardadan boshlanib, shu pardada tugaydi.
4. Dugoh maqomi, sakkizinchi pardadan boshlanib, shunda tugaydi.
5. Buzruk maqomi, to'rtinchi pardadan boshlanib, shunda tugaydi.
6. Iroq maqomi, birinchi pardadan boshlanib, shunda tugaydi.
7. Panjgoh maqomi, Rost maqomi kabi uchinchi pardadan boshlanib, shunda tugaydi.

Dutor nag'malari

Dutor sozi juda qadimdan Xorazmda umumiy turk sozlari ichida mashhur bo'lganligini yuqoridagi birinchi davr bo'limida aytib o'tgan edik. Dutor sozi Xorazm o'lkasida xalq orasida tanburga nisbatan ko'proq tarqalgan bo'lsada, ammo u tanburchalik tartibga solinmagan. Garchi dator nag'malari tanbur nag'malaridek bo'lsada, tanburga berilgan ahamiyat va e'tiborni dator nag'malariga qaratmadilar.

Chunki chertilishda dator tanburga qaraganda qiyinroqdir. Shunday bo'lsa ham Sayid Muhammadxon va Muhammad Rahimxon zamonlarida ko'plab dutorchilar, xususan "Boboqambar" tahallusli Mullo Muhammad Sharif dator nag'malarini maxsus bir chiziqqa o'tkazishni o'ylab ancha sa'y-harakat qilgan bo'lsada, chertilishdagi qiyinchiligi va ba'zi nag'malar bo'laklarining o'tgan zamonlarda rivoji to'xtaganligi va ba'zi yerlardagi (o'ng – B.M) qo'l vaziyatlarining tez va sustligi dator nag'malarini qog'ozga ko'chirishga monelik qildi. Ularning sa'y-harakatlari bekor ketdi.

Dutor sozining rivojlanishi va inqirozini ikki davrga bo'lish mumkin: Birinchi davr, Ko'hna Urganch shahrining obod zamonlaridirki, bu zamonlarda dator anchagina rivoj topdi. Bu davrda etishib chiqqan dutorchilardan mashhur Yusufbekni ko'rsatishimiz mumkin.

²⁰ Tanburning tuzilishi, maqomlarning boshlanishi va tugashi ularning lad asoslarini tashkil qiladi. Maqomlar azaldan parda-lad-tovushqator (yevropacha modus) masalasida ma'lum tartib va nizomga keltirilgan hamda o'zining qat'iy qonun-qoidalari asosida rivojlanuvchi san'at turi sifatida e'tirof etilgan. Bu haqda I.Rajabovning "Maqomlar" (nashrga tayyorlovchi va muharrir O.Ibragimov. T.: San'at, 2006. B.382-396) kitobi va O. Matyoqubovning "Maqomot" (T.: Musiqa, 2004. B.117-158) hamda O.Matyobov, R.Boltaev, H.Aminovlarning "Xorazm tanbur chizig'i" (T., Musiqa, 2009.) kitoblarida keng ma'lumot berilgan.



Xorazm maqomlarining mashhur ijrochilari, chapdan: Matyoqub Otajonov (doira), Madrahim Yoqubov-Sheroziy (tor), Xudoybergan Qurbonov - Xudak ota (bulomon), Matyoqub Xarrot (tanbur), Razzoqbergan Omonov (tanbur), Safo Ollaberganov -Mug'anniy (garmon). XX - asrning 30 yillari



Akademik Yunus Rajabiy (o'rtada) rahbarligidagi O'zbekiston radioosi maqom ansambli, birinchi qator chapdan: S.Kamolov, D.Sotfrixo'jaev (doira), G'. Toshmatov, I.To'raev (g'ijjak), I.Qodirov (nay), F.Sodiqov (chang), Yu.Rajabiy, O.Qosimov (dutor), G'. Saydullaev (qo'shnay), Alimatov (sato), Yo.Dovidov (tanbur), E.Yo'ldoshev (rubob), yuqorida chapdan, T.To'raev, Sh.Alimqulov, K.Ismoilova, M.Boyboev, B.Dovidova, Sh.Ergashev, X.Qodirova, O.Alimaxsumov, H.Yusupova, O.Otaxonov, R.Yo'ldosheva, I.Kattaev, S.Aminov. XX asrning 60-70-yillari



XX asrning 80-90-yillari, O'zbekiston radioosi maqom ansambli, birinchi qator chapdan: Q.Samadov (nog'ora), A.Dadaev, T. Jo'raev, A.Ismoilov (g'ijjaklar), A.Sobirov (nay), A.Xoltojiev (qonun), T.Maxmudov (chang), A.Siddiqov (qo'shnay), N.Ziyaev (ud), T.Turg'unov (rubob), O.Xotamov (tanbur). Yuqorida chapdan: R.Samadov (doira) xonandalar: J.Rahimov, M.Boyboev, aka-uka Ismoil va Isroil Vaxobovlar, E.I.Lutfullaev, Sh.Ismoilov, Sh.Ergashev, I.Bo'ronov, H.Rajabiy, B.Do'stmurodov, M.Tojiboev, M.Yo'ldoshev, A.Muhamedov, A.Muhamedov (rubob), ayol xonandalar chapdan M.Hasanova, M.Dadaboeva, H.Isroilova, G.Otaqulova, N.To'xtaeva, H.Yusupova



Xorazm maqom ansambli, chapdan birinchi qator: Sh.Rahmonov, G'Niyozmetov (doira), J.Matyayubov (g'ijjak), D.Davletov (qo'shmay), O.Sobirov (nay), Sh.Bekmetov (rubob), S.Yuldashev (ud), H.Babajanov (dutor), S.Eshjonov (dutor). Yuqorida chapdan xonandalar: A.Ozodov, M.Otajonov, U.Bobojonov, R.Ollaberganov, G'Eshchonov, B.O'rinov, G'Eshchonov, G.Samandarova, D.Ro'zmetova, N.Yusupova, Sh.Xudoyberganova (2014 y.)

Ikkinchi davr Sayyid Muhammadxon va Muhammad Rahimxon Soniy zamonlaridurki, bu zamonda dutor sozining avvaldagi ahvoli o'zgardi. Dutor sozining qadri ortdi. Xon va to'ralar, bek va bekozodalar hamda ularning ahrorlari va o'rta tabaqa xalq orasida bo'ladigan soz va suhbat bazmi majlislarda tanbur, g'ijjak, bulomon, doira kabi asboblar orasida dutor sozi birinchi mavqeni egalladi. Shu sababdan mahalliy mutaxassis dutorchilar yetishib chiqa boshladi. Shular jumlasidan xivalik Avaz Juma, Xo'ja Nazar Kurt ismli o'zbek dutorchilar o'z zamonasining mumtozi bo'lib yetishdilar. Mazkur Xo'ja Nazar Kurtdan Hazorasplik Pahlavon boy va Hazoraspling Miton mavzesidan Bobojon Miton kabi shaxslar dutorchilikni o'rganadilar. Bobojon Mitondan Usmonjon va Yoqub Dorchilar mashq oladilar.

Yuqorida nomlari zikr etilgan mutaxassis dutorchilar yetishib chiqqani sababli xalq orasida dutor soziga bo'lgan havas kuchayadi. Xususan, o'zbek va turkman cho'vdir (Turkman urug'i - B.M)lar orasida dutor sozi ancha o'rnashib qoladi. Jumladan, cho'vdirlar orasidan yetishib chiqqan Suyav baxshining yangi nag'malari dutorni xalq orasida yoyilishiga turtki bo'ldi. Ammo dutor nag'malari haqida uzundan-uzoq ta'riflar aytishga kitobchamiz hajmi imkon bermagani sababli so'zimizni shu yerda to'xtatamiz.

Dutor maqomlari

1. Iroq
2. Chapandoz
3. Mo'g'ulcha
4. Navoyi
5. Sadri Iroq
6. Rovi
7. Orazi bam
8. Tashniz
9. Majnun dali
10. Oxyor-Ahyor
11. Miskin

Bular dutor nag'malarining eng qadimgilaridandir. Bularga o'zbek va turkman dutorchilari yaratgan yangi nag'malarini qo'shmadik. Shuni ham aytish lozimki, ushbu ro'yxatdagi to'rtinchi raqamda ko'rsatilgan Navoyi maqomi "Qori Navoyi" deb ham yuritiladi. U Xorazmlik o'zbek dutorchilari tarafidan ancha qadimdan bog'langan bir maqom bo'lib, o'zbeklarning o'z milliy maqomlaridan bo'lganligi so'zlanib kelinadi.

Yuqorida zikr qilingan maqomlar aniq biror sho‘balarga ajratilmasada, bir nag‘madan ikkinchi nag‘maga o‘tadigan kuy usulining taqozasiga ko‘ra ijro qilinadigan xilma-xil ohanglar bo‘yicha har bir maqomni bir necha tushurim va bo‘laklarga ajratish mumkindir.

Masalan:

1. Iroq maqomi taxminan yetti qismga bo‘linsada, bu bo‘laklarning tanburda bo‘lganidek har birining maxsus nomlari yo‘qdur.

Faqatgina ushbu nomlar mavjud:

O‘rta Ufori

Nigoron

Oromijon

Bo‘y Muhammad

Saqlansin

Shu kabi besh qismning nomlari bo‘lib, qolganlarida nom yo‘qdur.

2. Chapandoz, Mo‘g‘ulcha, Navoyi maqomlarining har biri olti qismli bo‘lib, maxsus nomlari yo‘qdir.


3. Sadri Iroq, Rovi, Orazi bam maqomlarining har biri uch qismdan iborat bo‘lib, nomlari noma‘lumdur.

4. Tashniz, Majnun dali maqomlari to‘rt qismli bo‘lib, nomlari yo‘qdir.

5. Oxyor – Ahyor, Miskin maqomlari ikki qismli bo‘lib, nomlari yo‘qdir.

Yuqorida zikr etilgan yetti xil maqomlarning har birining oxirida maxsus ufarlari bordir²¹.

²¹ Bu haqda R. Boltaev “Xorazm dutor maqomlari” (T., 2007. Shveysariyaning Rivojlantirish va Hamkorlik agentligi homiyligida chop etilgan) kitobida, shuningdek, O. Matyoqubov, R. Boltaev, H. Aminovlarning “Xorazm tanbur chizig‘i” (T., 2009. B.77) kitobida “Dutor va surnay” maqomlari to‘g‘risida keng ma‘lumot berilgan.



Dutor sozining yon va old tomondan ko‘rinishi

TARJIMAYI HOLLAR

*Niyozjon Xo'ja (XVIII-XIX asr)*²²

Niyozjon Xo'ja bundan ancha ilgari Muhammad Rahimxon Avval zamonida taxminan ... (nuqtalar o'rni ochiq qoldirilgan - B.M) yillarda yashagan. Uning musiqiy ilmiga ishtiyoqi kuchligidan, Xorazmda ma'lum bo'lgan nag'malarni o'z hamkasblari qadar bilar edi. O'zidagi shuncha iqtidoriga qaramasdan musiqiyga havasi zo'rligidan Buxoroga jo'naydi. Maqsadi musiqiy ilmida mutaxassis bo'lib yetishish va Xorazm musiqiyini rivojlantirish edi. Niyozjon Xo'ja Buxoroga bor-gach, o'zining asl maqsadini amalga oshirmoq uchun tirishqoqlik qilib, tanbur sozida Shashmaqom nag'malarini o'rganadi. U Xorazmga qayt-gach, o'zi o'rgangan tanbur nag'malarini havaskor shogirdlariga o'rga-tishga kirishadi.

Niyozjon Xo'ja shogirdlari orasidan Mahzumjon qozi, Usta Muhammadjon Sandiqchi kabi mashhur tanburchilar yetishib chiqadi. Shunday qilib, Niyozjon Xo'ja Xorazmdagi barcha tanburchilarining bi-rinchi muallimi va yagona ustoz sifatida katta e'tibor qozonadi. Bundan tashqari Shashmaqom nag'malarini Xorazmda targ'ib va tashviq qilish kabi sharaflari ishni ham Niyozjon Xo'ja amalga oshirdi. U Shashmaqom nag'malaridan Buzrug maqomiga "Saqiyl" nomli bir nag'ma ham bog'lab, o'zining musiqiydagi iqtidorini isbot qilgandir. Afsuski, bu tabarruk insonning vafot qilgan sanasini aniqlay olmadik.

Mahzumjon Qozi (XVIII - XIX asr)

Bu zot Usta Muhammadjon sandiqchi bilan birga Niyozjon Xo'ja-dan Shashmaqom nag'malarini o'rgangandir.

Mahzumjon Qozi Muhammad Rahimxon avval zamonida qozikalon mansabida bo'lib, arab va forsiy tillarini bilar, tajvid ilmining yetuk sohibi edi. U ko'p vaqtini madrasada o'tkazar va qozilik vazifasini ado etish bilan bir vaqtda shogirdlariga dars ham o'qitar edi. Uning dars o'qitadigan joyida maxsus bir hujrasi ham bo'lib, butun soz asboblari shu erda saqlar va kechki paytlari zamondosh musiqiyshunoslar bilan to'planib, shu hujrada soz chalishar hamda havaskor shogirdlariga ham tanbur chalishni o'rgatardi. Garchi bu zot qo'lidan biror musiqiyshunos yetishib chiqqani ma'lum bo'lmasa-da, u bilan hamzamon bo'lgan va

²² O.Matyobov, R.Boltaev, H.Aminovlarning "Xorazm tanbur chizig'i" (T., 2009.B.35-37) kitobida qo'shimcha ma'lumot berilgan.

keyinchalik yetishib chiqqan musiqiyshunoslar orasida g'oyat mashhur bo'lgani va hanuzgacha Mahzumjon qozini ta'riflaydigan kishilarning mavjudligidan bu zotning ham nomini ko'plar qatori eslashni munosib ko'rdik. Biroq uning mufassal tarjimayi holi va vafoti sanasini aniqlay olmadik.



*Komil tahallusli
Pahlavon Niyoz Mirzaboshi (1825-1899)*²³

Mashhur musiqiyshunos Abdusattor Mahramning singlisi Avazjonni Abdulloh Mufti Nurboy Juk o'g'liga nikohlab berilgan edi. Bu xotindan bir o'g'il dunyoga kelgan bo'lib, unga Pahlavon deb ism qo'ydilar. Pahlavon Niyoz ilk taxsilini Xorazmning eski maktab va madrasalarida olib, so'ngra Sayyid Muhammadxon zamonida o'zining bobosi Xo'jash Mahramning savdogarlari qatorida tijorat ishlari bilan mashg'ul bo'ldi. Bir oz muddatdan so'ng u tijorat ishini tark etib, Sayyid Muhammadxonning supohsolarida otboqarlik xizmatiga kiradi.

²³ O.Matyobov, R.Boltaev, H.Aminovlarning "Xorazm tanbur chizig'i" (T., 2009.B.38-40) kitobida qo'shimcha ma'lumot berilgan.

Muhammad Rahimxon Soniy zamonida general Kaufman Xivani istilo etib, xon bilan shartnoma tuzganida Pahlavon Niyoz kotiblik vazifasini ado etadi. O'zining serg'ayratligi tufayli mirzaboshi rutbasiga sazovor bo'ladi. Ancha vaqtdan keyin devonbegi mansabiga tayinlanadi va besh yil o'tgach yana mirzaboshi bo'lib qoladi.

Abdusattor Mahramning shogirdi Usta Xudoybergan Etikichdan Shashmaqom nag'malarini o'rganib, musiqa sohasida favqulodda mahorat sohibiga aylanib, bundan ellik yil burun Xorazmda maxsus bir "nota" ixtiro qiladiki, hozir bu "nota" xalq orasida mashhur bo'lib undan foydalanmoqdalar.

Pahlavon Niyoz Rost maqomiga "Murabbayi Komil" nomli nag'ma bog'lagandur. Mashhur musiqiyshunoslardan Muhammad Rasul mirzaboshi, Yoqub dorchi, Usmonjon kabilar shu Pahlavon Niyoz mirzaboshi rahnamoligida yetishib chiqdilar. Bundan tashqari u talant va iqtidor rahnamoligida yetishib chiqdilar. Bundan tashqari u talant va iqtidor sohibi sifatida ta'bi nazmda ham mashhur g'azalnavis shoir shuxratiga erishib, 254 g'azaldan iborat "Devoni Komil" nomli she'riy devon tuzgan. Shuningdek, u zarif latifalarni hamda Xurdor Turkmanning "Ra'no va Zebo" asarni fors tilidan o'zbekchaga ravon ifoda bilan tarjima qilgandir. Pahlavon Niyoz bir necha marotaba Moskva va Toshkentga sayohat qilib, Toshkentga atab ellik baytdan iborat "Navro'ziy" qasidasini ham yozgan. U fors tilini mukammal bilar, rus tilni ham fikrini bayon etish darajasida egallagan edi. Bundan tashqari Pahlavon Niyoz ipak to'qish hunarini bilar va naqsh o'ymakorligini ham mukammal egallagan edi. Shuningdek, u Xorazmning peshqadam xushxat xattolaridan sanalib, atoqli shoir va muharrir ham edi. Pahlavon Niyoz mirzaboshining xon va to'ralar, amaldorlar to'g'risida hajviy she'rlari ham bor bo'lib, bu she'rlar xonning g'azabiga uchrashi mumkinligidan yo'q qilib yuborilgan.

Pahlavon Niyoz mirzaboshi o'zi yashagan Muhammad Rahimxon Soniy zamonida 1899 (hijriy 1317) yil sha'bon oyining 27- kuni tong saharda vafot etdi. U Pahlavon bobo mozorining kun botaridagi o'zining xilxonasiga dafn etildi. Vafotidan bir- ikki yil avval ikki ko'zi xira tortib, ko'rishi qiyinlashgan bo'lsa ham she'r bitar edi. Bu vaqtda yozgan she'rlari, asosan, xon va amaldorlardan shikoyat tarzida bo'lgan sababli bir-ikki kishilardan o'zgaga ko'rsatmas edi. Pahlavon Niyoz mirzaboshi umrining aksar qismini kitobxonlik bilan o'tkazib, doimo Xorazmning peshqadam olimu-adiblari uning dasturxonini atrofida to'planar edilar.

Muhammad Rasul Mirzaboshi (1840 -1923)²⁴

Yuqorida tarjimai holini yozganimizdek, Muhammad Rasul Mirzaboshi mazkur Pahlavon Niyoz mirzaboshining katta o'g'lidir. Bu u boshlang'ich tahsilni eski maktablarda olib, oliy ma'lumotini Iso qasi Abdullatifda kamoliga yetkazdi. Taxminan o'ttiz, o'ttiz besh yoshlarida arab va fors tillarini o'rganib, bu ikki tilda ancha ma'lumotli bo'lishga muvaffaq bo'ldi.

General Kaufman Xivani istilo qilgandan keyin Muhammad Rahimxon Soniyning buyrug'i bo'yicha Muhammad Rasul mirzaboshi o'z otasi Pahlavon mirzaboshidan Shashmaqom nag'malarini o'rganib, o'zi bilgan maqomlarini har kuni Muhammad Rahimxon Soniyga o'rnatib boshladi. Shunday qilib, Muhammad Rasul mirzaboshi xonning musiqa muallimi bo'lib qoladi. Shu asnoda otasi Pahlavon Niyoz mirzaboshi Xorazmda o'sha maxsus chiziq (nota)ni ixtiro qilib xonga taqdim etgach, Muhammad Rahimxon Soniy mazkur Muhammad Rasul mirzaboshiga barcha Shashmaqom nag'malarini shu chiziq bo'yicha qog'ozga ko'chirishni buyuradi. Muhammad Rasul mirzaboshi o'ziga topshirilgan bu ulug' vazifani ado etmoq uchun ishga qattiq kirishadi. Shashmaqom nag'malarini qog'ozga tushirmoq uchun avval puxta bir reja ishlab chiqishga qaror qiladi. Muhammad Rasul mirzaboshining kecha-yu-kunduz tirishib qilgan harakati natijasida Shashmaqom nag'malarini oqqa ko'chirilgan ikki jildli savod chiqaruvchi darslik nusxasi tayyorlanadi. Shunday qilib, Shashmaqom nag'malarining yo'q bo'lib ketish xavfi yo'qolib, shogirdlar qo'lga qo'llanma sifatida tutqaziladi.

Muhammad Rasul mirzaboshi Shashmaqomning Tasnif va Mushkilot qismlarini, ya'ni manzum va mansurlarini alohida-alohida to'plab mustaqil kitob qiladi. Ilgaridan Xorazmda tarqalgan Shashmaqom nag'malarini mahalliy musiqiyshunoslarning bog'lagan nag'malari bilan qo'shib, "Olti yarim maqom" deb yuritilar edi. Muhammad Rasul mirzaboshi g'ayrat ko'rsatib, yarim maqom darajasida bo'lgan "Panjgoh" nag'masiga bir necha nag'malarni qo'shib, uni bir butun maqom qilib o'ldirdi. Shu bilan Shashmaqom nag'masi yetti maqomga aylandi.

Muhammad Rasul mirzaboshi barcha maqomlarning usullarini ham yozib, ularga madaniy bir rang berib tuzatdi. "Gup-taq, taqqa" kabi so'zlardan doira tovushlarini ifoda etish uchun maxsus usul yaratdi. Bunda soz orqali barobar ijro etilganda nag'malarning ohangiga ko'ra

²⁴ O.Matyqubov, R.Boltaev, H.Aminovning "Xorazm tanbur chizig'i" T., 2009. B.66-68) kitobida qo'shimcha ma'lumot berilgan.

“taq-gup”larni oralarida ba’zi lozim bo’lgan “ist” (pauza) tinish vaqtini bildirish uchun “*” shaklini qo’yib, butun usullarni barchaga qulaylik bilan o’qishi mumkin bo’lgan bir holatga keltiradi. Shu tariqa kamolga yetkazilgan ikki katta jildli “chiziqli” kitobni Muhammad Rahimxon Soniyga taqdim etadi. Xon o’zining xos kotibi Xudoybergan Muhrkan-ga bundan bir-ikki nusxa ko’chirtirib, xalqqa tarqatadi. Shu izohotimiz-ga qaraganda Muhammad Rasul mirzaboshini Xorazm musiqasining birinchi islohotchisi, saqlovchisi va homiysi deb hisoblashga asos bor. U Rost maqomiga “Musabba” va “Ufori” deb nomlangan ikki nag’ma bog’lagandur.

Muhammad Rasul mirzaboshi tanburni qanchalik mahorat bilan “xush noxun” qilib chertsa, g’ijjakni ham o’shanday chalar edi. Doirada turli usul chalishga g’oyat mohir edi.

Muhammad Rasul mirzaboshi 1899 (hijriy 1317) yilda otasining vafotidan so’ng uning o’rniga mirzaboshi mansabiga tayinlanadi. Taxminan 1910-1911 (hijriy 1326-1327) yillarda Asfandiyor zamonasida ushbu vazifadan chetlatilgan.

Muhammad Rasul mirzaboshi musiqiyshunoslikdan tashqari xattotlikda ham mashhur edi. Ta’liq va nasta’liq yozuvlarida juda go’zal yozar edi. U Muhammad Rahimxon Soniy va Asfandiyorxonlar amri bilan bir necha kitoblarni yozgandur. Taxminan besh yuz shogirdi bor edi.

Muhammad Rasul mirzaboshi eski usul bo’yicha ko’p kishilarga dars berib, fors tilni ham o’rgatardi. Otasidan qolgan va o’zi ham to’p-lagan mingdan ortiq kitoblari bo’lub, ularni ardoqlar edi. She’riyatdagi mahorati otasichalik bo’lmasa-da, “Marg’ub ul- Nozirin” nomli she’riy devoni bordur. “Mirzo” tahallusi bilan she’r yozardi. Zamondosh shoirlar o’zlarining she’rlarini ko’p hollarda undan tuzattirib olardilar. Asfandiyor xon ham “Farrux” tahallusi bilan yozgan she’rlarini, asosan, Muhammad Rasul mirzaboshiga ko’rsatar va u bu she’rlarni tahrir qilib berardi.

Muhammad Rasul Mirzoning yozgan va tarjima qilgan kitoblari

1. “Mumtoz” tahallusli Xurdor Turkmanning “Ra’no va Zebo” nomli kitobi (forschadan tarjima)
2. “Tuxfat ul-mo’minin” kitobining birinchi qismi (Tib kitobidan)
3. Hadisdan “Mavlaviy haq”ni “Fazoil al-qur’on”ni
4. “Shams al-maorif” kitobining ikki bobini, ya’ni Asma al-husna Sharhini (arabchadan tarjima)

5. “Daqoyaiq al-axbor” (arabchadan tarjima).

6. “Mag’rib ul-nozirin” she’riy devoni.

7. Fuzuliyning forsiydagi “Soqiynoma”sini o’zbekchaga she’riy masnaviy uslubida tarjima qilgan. Bu tarjimani Muhammad Rahimxon Soniy amri bilan o’zining devoni “Mag’rib ul-nozirin”ga qo’shgan.

Muhammad Rasul mirzaboshi 1923-yilda (hijriy 1340) sha’bon oyining yettinchisida payshanba kuni sakson uch yoshida vafot etdi. U Sherg’ozixon madrasasining kunbotar tarafida o’zi soldirgan madrasaning gunbazi ostida dafn etilgandir.

Muhammad Rasul mirzaboshi yolg’iz qolganda she’r yozish, mutaola qilish bilan mashg’ul bo’lib, biror daqiqasini ham bekor o’tkazmas edi. Butun umrini she’r yozish, soz va kitob mutaolasi bilan o’tkazdi. Musiqaga g’oyat ixlos qo’ygani sababli biror soz ovozi eshita har qanday ishi bo’lsa ham to’xtatib, butun vujudi bilan berilib tinglar edi. U mehmonxonasida tanbur, g’ijjak, dutor, doira sozlarining eng a’lo-laridan bir qanchasini saqlar edi. Hatto o’zining musiqaga bo’lgan qat’iy ixlosini “Mag’rib ul-nozirin” devonida “Mirzo musabba’ni ufori birla cholur, sen dag’i chal saqilni ki Devon Muhrkan” deb go’zal lutf bilan anglatgan. Muhammad Rasul mirzaboshining shogirdlari orasida “Xarrot Devon” tahallusli Muhammad Yoqub elga mashhur bo’ldi.

Muhammad Rahimxon Soniy²³ (1842-1910)

Muhammad Rahimxon Soniy 18 yoshida 1864 (hijriy 1281) yilda Sayyid Muhammadxon vafotidan so’ng xonlik taxtiga chiqdi. To’qqiz yil mustaqil hukmronlik qilgandan so’ng 1873 (hijriy 1290) yilda general Kaufman Xorazm o’lkasini batamom istilo qilgach, Xiva xonligi Rusiya podshohining qo’li ostiga o’tdi. Xonning atrofidagi kishilarning tashviqi sababli musiqaga havas qo’yib, Muhammad Rasul mirzaboshidan olti yarim maqomni o’rgandi.

Pahlavon Niyoz mirzaboshi ixtiro qilg’on chiziqdan ko’plab nusxa ko’chirtirdi. U adabiyot sohasida ham shug’ullanib, “Feruz” nomli she’riy devon ham tuzdi. Bu devoni Xorazmdagi bosmaxonada bosilib chiqarildi. Undan tashqari arabcha, forsha va usmonli turk tillaridan ko’pgina tarixiy, badiiy kitoblarni o’zbekchaga tarjima qildirdi.

Uning zamonasida o’ttizga yaqin shoir, 40-50 ga yaqin muharrirlar yetishib chiqdilar. Ular ichida mashhur iqtidor sohiblari bo’lmish

²³ O.Matyoqubov, R.Boltaev, H.Aminovlarning “Xorazm tanbur chizig’i” (T., 2009. B.40-42) kitobida qo’shimcha ma’lumot berilgan.

Ahmadjon Tabibiy, Yusufbek Bayoniy, Muhammad Rasul Mirzo, Avaz O'tar o'g'li, mashhur tarixchi Muhammad Rizo Mirob Ogahiy, Mirob Munis, Pahlavon Niyoz mirzaboshi Komil, Yusuf Mahzum Rojiylarni ko'rsatishimiz mumkin. Muhammad Rahimxon Soniy hukmronligining so'nggi yillarida o'yin va kulgi san'atiga moyil bo'lib, doimo saroyiga Xivaning mashhur qiziqchi va masxarabozlarni chorlar edi. Ular orasida Xo'jaboy Ko'r, Otoq Jonli, Ko'pal Hoji, Bayotvoy kabilar g'oyat serzavq kishilar edilar. Turli zamon va har xil joylarda ot va tuya boqish bilan mashg'ul bo'linganidek, qiziqchilar ham har xil mushuklarni boqar, Otoq jonli va Ollabergan Hojilar mushuklarni kundalik ovqatlari uchun qassobdan go'sht olar, ular turli o'yinlar ko'rsatib xonning ko'nglini xushlar edilar.

Muhammad Rahimxon Soniyning Shashmaqomga bog'lagan nag'malari ushbulardir:

1. Rost maqomiga: "Muhammasi jadidi Feruz", "Musaddasi jadidi Feruz".
2. Navo maqomiga: "Saqiyli Feruzshohiy", "Chor usuli Feruz"
3. Dugoh maqomiga: "To'rtinchi peshravi Feruz", "Saqiyli Feruzshohiy".
4. Segoh maqomiga: "Saqiyli Feruzshohiy", "Se usuli Feruzshohiy", "Chor usuli Feruz".
5. Buzrug maqomiga: "Muhammasi Feruzi Buzrug"
6. Iroq maqomiga: "Birinchi Muhammasi Feruzshohiy", "Ikkinchi Muhammasi Feruzshohiy".
7. Panjgoh maqomiga: "Saqiyli Feruzshohiy" bo'lib, jami o'n uch nag'ma bog'lagandir.

Muhammad Rahimxon Soniy 1872-1878 (1290-1296) yillarda Erondan bir tosh bosma matbaasini keltirib, Ibrohim Sulton ismli matbaachiga topshirib, ko'plab kitoblar chop ettirdi. Muhammad Rahimxon Soniy o'zining xos Mahramlaridan Ulli Mamat Mahram tarafidan ochilgan yagona usul jadid maktabini ulamolar yoqtirmaganligi tufayli yoqtirdi. Qirq yetti yil hukmronlik qilib 1910 (1328) yilda, sha'bon oyining 24-sida, dushanba kuni Ko'hna Arkda vafot etdi. Vafotidan birikki yil oldin chap oyoq-qo'li butunlay shol bo'lib qolgan edi. Tabiatan ancha xasis edi. Boshlang'ich ma'lumotni otasi zamonida xususiy mullalardan olgan edi.

Qambar bobo (1842-1918)

Bu zot Xivaning janub tarafidagi "Shayxlar" mavzidandir. Ismi Muhammad Sharif bo'lib, laqabi "Qambarbobo" edi. Ubarvasta, qora soqolli, g'oyat mag'rur, bir so'zli, hech kimga bo'yin egmaydigan bir kishi edi. Bundan olti-yetti yil ilgari sakson yoshlarida o'zi yashagan mavzeda vafot qildi. Qambar bobo dutor sozini o'ta darajada yaxshi bilganidek, dutor kuylarini ham birinchi darajada bilardi. Ancha vaqt dutor nag'malarini qag'ozga tushirishga urunib ko'rdi, biroq bu orzusini amalga oshira olmadi. Qambar bobo vafotidan so'ng Xorazmda dutor sozining mavqei uning bilan birga so'ndi deb aytadigan bo'lsak muholag'a qilmaymiz. Chunki Qambar bobodek dutor maqomlarining nozik sirlaridan voqif bo'lgan dutorchilar endi xalq orasida ko'zga tashlanmayapti. Uning vafoti dutor sozi uchun katta yo'qotish bo'ldi deyish mumkin.

Muhammad Yoqub Fozachi (XIX-XX asr)

Uning asli ismi Muhammad Yoqub bo'lib, "Fozachi" laqabidir. U mashhur Avaz Dorchining yagona shogirdidir. Bu zot faqat tanbur sozida benazir bo'lib, barcha nag'malarni o'ta mahorat bilan "gulpar" qilib chalardi. Tanburchi bo'lish bilan birga, birinchi go'yanda (ashulachi)lardan sanalardi. Ovozi juda yoqimli bo'lub, soz ohangidan zarracha chetga chiqmasdi.

Muhammad Yoqub Fozachini aksar kishi tanir va bilar edi. O'zi Muhammad Rahimxon Soniyning xos go'yandasi va tanburchisi bo'lsada aksari hollarda to'ylarga ham borar edi.

Fozachi bir zamonlar Buxoroga sayohatga borganida uning ta'rifini eshitgan Buxoro amiri Abdullahad uni saroyga chaqirtirib, san'atidan bahramand bo'ladi. Keyin Muhammad Yoqub Fozachi Xivaga qaytganida Buxoro amirining saroyiga borgani uchun Muhammad Rahimxon Soniy ancha vaqt unga qaxr qilib yurgani ma'lumdur.

U 1919 yilning oxirida Xorazm inqilobining boshlanishida, taxminan ellik yoshlarida hiqqichoq kasaliga chalinib, o'zi tug'ilgan mavzeda vafot etdi. Muhammad Yoqub Fozachi tozalikni sevar va o'zga kishilar qo'l tekkizgan narsalarni imkon qadar qo'lga olishdan xazar qilardi. Shuning uchun Fozachiga "chitoyi", ya'ni sinchkov, nozikta'b ham der edilar.

Xudoybergan Muhrkan²⁴ (1822-1920)

Bu zot Sayyid Muhammadxon zamonidan boshlab, Muhammad Rahimxon Soniy va Asfandiyor va Sayyid Abdullohxon zamonlarida Muhrkan va kotib bo'lib kelgandir. O'zi g'oyat xushxat bo'lib, nasx va ta'liq xatlarini go'zal yozar edi. Muhrkanlikda Xorazm va Turkistonning ko'pgina yerlaridagiga nisbatan o'z zamonasining buyuk bir namoyandasi edi.

U tanbur chalishni bilar edi. Yetti maqom nag'malarini bir marotaba chizib chiqqandir. Rost maqomiga bog'lagan "Saqiyli Muhrkan" nomli bir nag'masi bordur. 1920 (hijriy 1338) yilda "Rabbiulavval" oyining 20-sida, juma kuni o'zi tug'ilgan Sanggar mavzesida, to'qson sakkiz yoshida vafot etdi.

Do'nmas²⁵ (XIX-XX asr)

Laqabi Do'nmas (o'z so'zida turuvchi, bir so'zlik, qaysar) bo'lgan Qalandar ismli sozanda Muhammad Rahimxon Soniyning xos musiqiyshunoslaridan bo'lib, bundan yetti yil avval "Kushanda" mavzesida xotini sabab bo'lib, o'z dehqoni tarafidan o'ldirilgan. Bu zot tanbur, g'ijjak, dutor, surnay, bulomon, fortepiano, garmon, rubob, kamon (skripka), santur (chang turi), qo'biz sozlarini chertishga mutaxassis bo'lib, shu bilan birga bu sozlarning ko'pini tuzatmakni ham mukammal bilar edi. Uning musiqaga bo'lgan zakovati va iqtidoriga butun Xorazm musiqiyshunoslari tahsinlar aytgan edilar. U yetti maqom nag'malarini qog'ozga o'yib (teshib) yozib, Organ nomli sozda bekami ko'st ijro etishga muvaffaq bo'lgandir.

Rizo baxshi (XIX-XX asr)

Bu zot Gurlan qal'asining Xitoy mavzesidandir. O'zi ham baxshi ham jirchi edi. Laqabi Rizo Bejilov edi. Rizo baxshi Muhammad Rahimxon Soniyning xos baxshisi va jirchisi bo'lib, kechalari xonning yotog'iga kirib, bir ertak boshlar, ertagi tugagach, shu mazmunga to'g'ri keladigan g'azallarni qo'biz sozi bilan aytib, xon uyquga ketgandan so'ng chiqib ketardi. Rizo baxshining har kundagi vazifasi shundan iborat edi. Rizo baxshi mazkur xon zamonida vafot qilgandir. Rizo

²⁴ O.Matyoqubov, R.Boltaev, H.Aminovlarning "Xorazm tanbur chizig'i" (T., 2009. B.68-70) kitobida qo'shimcha ma'lumot berilgan.

²⁵ Bu haqda O.Matyoqubov, R.Boltaev, H.Aminovlarning "Xorazm tanbur chizig'i" (T., 2009. B.73-74) kitobiga hamda R.Boltaevning "Xorazm musiqiy tarixchasi kitobiga sharh" maqolasida berilgan perfokarta bo'yicha ma'lumotga qarang.

baxshining xon huzurida qo'biz sozi bilan o'qigan g'azallaridan birini ko'rsatib o'tishni lozim topdik:

*Charxini tovlab soz etgan,
Yigit ko'rib noz etgan,
Mang'itlining qizlari.*

*Oyog'ida kovushi yo'q,
Hech kim bilan ishi yo'q,
Hazorasplining qizlari.*

*Farajasi sochoqli,
Uzun bo'yli geng qujoqli,
Ivalining qizlari.*

*Qo'linda bor bilguzuk,
Navvalo bellari nozik,
Urganchlining qizlari.*

*Boqcha ko'rsa boyim der,
Qamishliq ko'rsa joyim der,
Qozoqlarning qizlari.*

Suyav baxshi (XIX-XX asr)

Suyav baxshi asli turkmanning chovdur urug'idan bo'lib, Bo'l-dimsoz degan mavze'dandir. Suyav baxshi inqilobdan bir yil avval, ya'ni, bundan besh yil burun vafot etgandir.

Suyav baxshi o'zbek, turkman, qoraqalpoq xalqlari orasida g'oyat mashhur baxshi bo'lgandek har tomonlama tanilgan bir zot edi. Xorazmda uni tanimagan kishi yo'qdir deb aytsak mubolag'a qilmaymiz. Suyav baxshining o'zi yaratgan 7-8 turli nag'masi bor bo'lib, ular xalq orasida sevilib ijro qilinib kelinadi. Suyav baxshining uslubini aksar kishilar qo'llay olmaydilar. U o'zi yaratgan nag'malarini go'zal bir suratda chala olganidek, kuylashga ham usta edi. Afsuski, uning tarjimaiy holini mufassal yozish uchun ma'lumotlar to'plashga vaqtimiz yetarli bo'lmadi.

Suyav baxshining nag'malari:

1. Ilg'or
2. Ilg'or Sarpardasi
3. Ko'r qiz
4. Eshvoy
5. Shoh ko'chdi
6. Muxammas
7. Shohsanam

Mashhur g'ijakchilar

1. Abduraxmonbek
2. Abdulla Mejana
3. Muhammad Yoqub Xarrot
4. Muhammad Rasul mirzaboshi
5. Qalandar Do'nmas

Bular ichida eng iqtidorlilari Qalandar Do'nmas bilan Abduraxmonbeklardir.

Muhammad Yoqub Xarrot dan boshqa lari hozirda hayot emaslar. Bularning barchasi etti maqomni ham bilar edilar.


Muhammad Yoqub Xarrotning "Xarrotiy" nomli bir nag'masi ham bor²⁶.

Mashhur xonandalar

1. Yoqub Dorchi
2. Usmonjon
3. Abdujabbor Mahzum
4. Avaz Dorchi
5. Muhammad Yoqub Fozachi
6. Xudoyberdi Mahzum Sa'dulla Xatib o'g'i

kabilari bo'lib, hozirda faqat Xudoyberdi Mahzumgina hayotdir.

²⁶ Muhammad Yoqub Xarrot to'g'risida O.Matyoqubov, R.Boltaev, H.Aminovlarning "Xorazm tanbur chizig'i" (T., 2009. B.74-76) kitobida keng ma'lumot berilgan.



Milliy musiqiyshunoslardan Muhammad Yoqub Devon

Mashhur bulomonchilar


1. Yoqub bulomonchi. U Muhammad Rahimxon Soniy zamonida Shayx Mashhad mavzeida taxminan yetmish yoshida vafot qilgandir.

2. Bobo bulomonchi. U "Oqmachit" mavzesidan edi. Asfandiyorxon zamonida yetmish besh yoshlarida vafot etgan.


Yuqorida zikr etilgan bu ikki sozanda barcha maqomlarni bilar edilar.

Mashhur surnaychilar

Sariq Mehtar Muhammad Rahimxon Soniy zamonida etishib chiqdi. O'zi "Karyonchi"larga qarindoshdir. Sariq Mehtar mazkur xon zamonida "Navo" maqomiga "Peshrav zanjiri" nag'masini bog'lagan-dir.



Bulomon cholg'usi




Surnay sozining ichki va yon taraflaridan ko'rinishi.

Muhammad Rahimxon Soniy zamonidagi mashhur dostonchilar

Dostonchilar ikki turga bo'linadilar: Biri baxshi, ikkinchisi jirovlardir. Baxshilar bulomon, dutor, g'ijjak sozlari jo'rligida doston aytadilar. Jirovlar esa faqat qo'biz sozi jo'rligida kuylaydilar.

Mashhur baxshilar


1. Gurlanlik Ernafas baxshi
2. Avaz bola
3. Chig'atoylik Nurilloh baxshi
4. Cho'vdir Suyav baxshi



Qo'biz cholg'usi

Mashhur jirovlar

1. Gurlanlik "Bejilov" laqabli Rizo baxshi. Uning tarjimayi holini yuqorida keltirdik. Hozirda ham qozoq, qoraqalpoqlar orasida ko'pgina jirovlar bordir.



G'ijjak va qo'biz sozlari

Xorazmda qo'llanilgan soz asboblari

1. Dutor
2. Tanbur
3. G'ijjak
4. Bulomon
5. Surnay
6. Doira
7. Qo'bizlardir

RISOLADAGI MURAKKAB SO'ZLAR IZOHI VA LUG'AT

- Ahror – erkin, ozod inson, samimiy do'st.
- Akkord – bir vaqtda yoki birin-ketin eshitiladigan uch va undan ortiq tovushlarga akkord deyiladi. "Tarixcha"da mualliflar tanbur simlarining bir-biriga hamsoz nisbatini hisobga olib, yevropacha atama bilan izohlaganlar.
- Balli – ma'lum.
- Buzrug – ulug', katta ma'nosida. 12 maqom va Shashmaqom tarkibidagi maqom nomi
- Chapandoz – talqinlarga o'xshash murakkab doira usulida ijro etiladigan kuy va ashula yo'llari.
- Chitoyi – noziktabiat, sinchkov
- Chorgoh – to'rt pardali tovushqatordan iborat bo'lgan 12 maqom sho'balaridan birining nomi. Shashmaqom va Xorazm maqomlari tizimidagi Dugoh maqomi sho'basining nomi.
- Daqoyiqul-axbor – nozik xabarlar.
- Do'nmas – o'z so'zida turuvchi, qaysar, qaytmas
- Do'ragan – dunyoga kelgan, yetishib chiqqan.
- Dugoh – ma'nosi ikki o'rin, joy, yo'nalish. 12 maqom tarkibidagi sho'ba nomi. Shashmaqomdagi maqom nomi.
- Dunash – Tunash, yotib qolish
- Duziladur – sozlanadi.
- Fazoile Qur'on – Qur'on fazilatlarini.
- Fozachi – omoch, kunda singari yer haydashda ishlatiladigan asboblarning uchiga kiygiziladigan, temir, cho'yan yoki po'latdan ishlangan tish (plug) ga foza deyiladi. Muhammad Yoqubning otalari foza quyuvchi temirchi ustalar bo'lganligidan Fozachi laqabini olishgan.
- Go'yanda – aytuvchi, so'zlovchi. Bu o'rinda ashulachi, hofiz.
- Hafif – engil doira usullaridan birining nomi.
- Holo – hozir, bugungi kunda
- Ikmol – kamolga etgan, takomillashgan, to'ldirilgan.
- Intishor – nashr qilish, tarqatish.
- Kanori – cheti, atrofi, qirg'oqi.
- Mag'lub-ul nazarin – yoqimli qarovchilar.
- Maqom – yo'l, yo'nalish, aniq istiqomat o'rni, parda; turli kuy va ashulalarning musiqiy sozlarida boshlanadigan o'rni. Muayyan lad tovushqatori va unga mos keladigan musiqiy asarlari majmuasi (12 maqom, Shashmaqom).

Matavuse – rivojlanish.

Mavlaviy Haq – ollohga bandalik, qullik.

Mazbir – ijobiy, pozitiv.

Mehtar – boshliq, zobit, ustaboshi. Karnay, surnay, doira va nog'oralardan tashkil topgan, harbiy yurishlarda va tashqarida ijro qiladigan qo'sh-ansambl boshlig'i.

Miskin – bechora, faqir, notavon. 1. Shu tahallusda ijod qilgan shoir, sozanda. 2. O'zbek mumtoz qo'shiqlar turkumi. 3. Xorazm dutor maqomlarining o'n birinchisi.

Mo'g'ulcha – Shashmaqom ashula bo'limining ikkinchi qismiga kiradigan savtlar ko'rinishidagi sho'balar nomi.

Muhaffaz – himoyachi.

Muhammas – beshlik. Doira usuli va shu usulda ijro etiladigan maqom yollari.

Muhtalif – har-xil, turli-tuman.

Muqaddima – boshlanish, debocha.

Mug'alhasab – mo'g'ul zodagonlari.

Murabba' – to'rtlik, to'rt burchakli.

Musabba' – yettilik.

Musaddas – oltilik, olti bandlik, olti qirrali.

Musbat – mustahkam, qat'iy.

Mushaddid – shiddatli, kuchayib boruvchi.

Musoida – qarz, yordam, nafaqa.

Mutaassif – kamtarona, ojizona, qo'ldan kelganicha.

Mutadovil – oddiy, amaliy ishlatiladigan.

Nag'ma – yakka musiqa tovushi, ton. Nag'malar birikmasidan ashula va qo'shiqlar tarkib topadi.

Naqsh – bu yerda kuy, ashula ma'nosida.

Nasx – arab yozuvi turi.

Nasr – sochma, g'alaba, ko'mak. Shashmaqomning ashula bo'limi.

Navo – ohang, kuy. 12 maqom, Shashmaqom va Xorazm maqomlari tarkibidagi maqom nomi.

Odiqqan – nomdor

O'lchagi – o'lchovi

O'ngishiq – kun kechirish, tirikchilik

Oshoq – past, quyi, tuban.

Panjgoh – besh o'rin, joy. 12 maqomdagi sho'ba va Xorazm maqomlaridagi yettinchi maqom nomi.

Parda – to'siq, oraliq. Musiqa tovushlarini aniq chiqarish uchun barmoqlar bilan bosiladigan o'rin, joy.

Pauza – to'xtash, tinish, dam olish, vaqtincha jim turish.

Rost – mos keluvchi, to'g'ri yo'l. 12 maqom, Shashmaqom va Xorazm maqomlari tarkibidagi maqom nomi.

Roviy – rivoyat qiluchi, qissa aytuvchi, dostonchi, baxshi.

Samoiy – maqom tarkibidagi kuy nomi.

Santur – chang sozining bir turi.

Saqil – og'ir, vazmin. Shu usulda ijro etiladigan cholg'u qism.

Saslar – tovushlar

Segoh – uch o'rin, joy, me'yor ma'nosida. 12 maqom sho'basi, Shashmaqom va Xorazm maqomlaridagi maqom nomi.

Shashmaqom – olti xil lad tovushqatoriga mos keladigan turkumli musiqa asari (Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq maqomlari).

Sho'ba – 12 maqom tizimida lad asosi (parda tuzilmasi) Shashmaqom tarkibiga kirgan ashula bo'limining yirik shaxobchasi.

Suvora – otlilik, chavandoz. Xorazm maqomlari tarkibidagi va mumtoz tasavvufiy ashulalar turkumi nomi.

Ta'liq – arab yozuvi turi.

Talqin – nasihatgo'y ma'nosida, maqomlarda shu nom bilan ataladigan doira usulida lirik g'azallar bilan ijro etiladigan sho'balar nomi.

Tarje' – qaytarma ohang aylanmalaridan tuziladigan kuy. Maqom cholg'u bo'limlaridagi ikkinchi qism.

Tavatron – og'izdan-og'izga ko'chib yuruvchi, og'zaki

Tuhfat ul-mo'minin – mo'minlar tuhfasini.

Ufor – yengil raqs musiqasi, doira usuli.

Ushshoq – oshiq. 12 maqom, Shashmaqom va Xorazm maqomlaridagi sho'ba nomi.

Yo'g'un – yo'g'on.

Yomaladur – yamoq qilinadi, qo'shiladi

Yo'nish – yasash, tuzatish.

Yuvonliq – otboqar

Zarbulfat – zarb - urish, fatx - g'alaba, zabt etish. Xorazm Dugoh maqomi cholg'u qismidagi Saqili Feruzdan so'ng ijro etiladigan kuy.

MUALLIFLAR HAQIDA MA'LUMOTLAR

MULLA BEKJON RAHMON O'G'LI (1887-1937)

XX asr boshlarida Xorazmda madaniyat va ma'rifat sohasida ko'pgina asarlarni to'plash, nashr qilish, tadqiqot ishlarini olib borish kabi savobli ishlarni amalga oshirgan kishilardan biri Mulla Bekjon Rahmon o'g'lidir.

Mulla Bekjon 1887 yilda Xivada ma'rifati oilada tavallud topdi. Uning otasi Rahmonbergan Mahram Xiva xonligida bosh vazir lavozimida ishlagan davlat arbobi Islomxo'janing ish yurituvchisi bo'lib, Xivadagi shifoxona, pochta, telegraf, qator madrasa va minoralarni barpo qilishda bosh-qosh bo'lgan. Bu oilada voyaga etgan Bekjon yoshligidan ilmu-ma'rifat yog'dusida kamol topdi, maktab va madrasalarda tahsil oldi.

Uning otasi Islomxo'ja yordamida o'g'lini Istanbul seminariyasiga o'qishga yuboradi. 1913-1918 yillarda Mulla Bekjon diniy va dunyoviy bilimlar bo'yicha tahsil oladi. Bunga qadar u yerda o'zbek adiblari Fitrat, Abdurahmon Sa'diy, Usmon Xo'ja va boshqalar o'qigan edilar. Mulla Bekjonning Turkiyada bo'lishi uning yosh turklar harakati g'oyasi bilan oshno qiladi. Natijada u Xivaga qaytgach, "Yosh xivaliklar" safiga qo'shilib, jadidchilik harakatida faoliyat ko'rsatadi.

1920-yilda Xiva xonligi tugatilgach, Xorazm xalq sho'rolar respublikasi tashkil etilib, 22-aprelda bo'lib o'tgan Xorazm xalq respublikasining I qurultoyida Mulla Bekjon Xalq maorifi noziri qilib saylanadi. O'z navbatida u madaniyat noziri sifatida ham faoliyat yurgizdi. Bu ishda faollik ko'rsatib, xonning haram saroyida yetim bolalar uchun Karim Qori Niyoziy bilan birgalikda yetim bolalar uyini ochish, o'qituvchi va tarbiyachilar topishda jonbozlik qildi. Shu yili oktyabr oyida Mulla Bekjon Taftish noziri qilib tayinlandi. U Xorazm Markaziy ijroya qo'mitasi ish boshqaruvchisi, hukumat a'zosi sifatida katta tashkilotchilik ishlarini olib bordi. Buxoro va Xorazm Respublikalari o'rtasida iqtisodiy-madaniy Shartnomaning tuzilishida faol ishtirok etdi. Xorazm Respublikasi faoliyat ko'rsatib turgan 1920-1924 yillarda ma'lum muddat mamlakatning Moskvadagi muxtor vakili sifatida ham ish olib bordi.



1921-yili Xivada RSFSRning komil huquqli vakillari tomonidan davlat to'ntarilishi qilingan paytda M.Bekjon Moskvada bo'lgan va ushbu voqealardan xorijiy nozirlik orqali xabar topadi. O'zini ehtiyot qilish maqsadida oldin Toshkentda va keyinchalik Chorjo'yda yashirilib yuradi. Xorazm xalq respublikasining II qurultoyida M.Bekjon yana hukumat a'zosi sifatida Muhammad Rahimboy va Sobirbergan Qo'chqorovlar bilan birgalikda Junaydxon oldiga hukumat vakili sifatida boradi. Shu yil 28-noyabrda Mulla Bekjon Rahmonov va Muhammad Yusuf Devonzoda Xorazm xalq respublikasining barcha nozirlari qatori qamoqqa olinadi va ularga "xalq dushmani" degan ayb qo'yilib, avval otuvga qaror qilinadi, keyin bu qaror o'zgartirilib, o'n yil muddatga qamoq jazosi bilan almashtiriladi. Ammo sal o'tmasdan Muhammad Yusuf Devonzoda hukumat ishiga jalb qilinadi.

Mulla Bekjon Rahmonov esa 1920-yilda Boku shahrida o'tkazilgan 30 dan ortiq musulmon davlatlari vakillari ishtirok etgan Sharq xalqlari qurultoyida, Mustafo Anvar Posho va T.Risqulovlar bilan "oldindan tanish bo'lgan va hamfikirlik qilgan" degan ayblar bilan 1923-yil fevral oyigacha To'rtko'l qamoqxonasida turli azob-uqubatlar ostida hibsdan saqlanadi va keyinchalik qaror o'zgartirilib, maktab bolalari uchun darslik va o'quv adabiyotlari yaratuvchi V.Gorodetskiy va Bobo Oxund Salimovlardan iborat komissiyaga rais sifatida yana hukumat ishiga jalb qilinadi²⁷.

Mulla Bekjonning adabiyotshunoslik faoliyati, ilmiy va ijodiy biografiyasi haqida ma'lumotlar juda oz saqlangan. Taniqli olim Naim Karimov keltirgan ma'lumotlarga ko'ra xorazmlik shoir, qatag'on qurbonlaridan biri Qurbon Beregin XX asrning 20-yillarida Xorazmda yuz bergan voqealar, shu jumladan, Mulla Bekjon Rahmonov kabi ziyolilar hayoti aks ettirilgan 15 bosma taboq hajmda tarixiy asar bitgan. Ammo Qurbon Beregin qamoqqa olinganida asar ham yoqib yuborilgan²⁸. Afsuski, "Xorazm musiqiy tarixchasi"dan tashqari uning biror bir asari bizgacha yetib kelmagan. Lekin, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, Bekjon Rahmon o'g'li Abdurauf Fitratning yaqin maslakdoshi bo'lgan. Professor, H.Boltaboevning xabariga ko'ra, Fitrat qalamiga mansub, o'z davrida yuksak qadrlangan, amirlik tuzumi va hayoti tanqid ostiga olingan "Begijon" (1916) p'esasining prototipi bo'lgan. Ammo bu asar ham bizgacha yetib kelmagan.

²⁷ Полвоннияз хожи Юсупов. "Ёш Хиваликлар тарихи". Урганч, "Хоразм" нашриёти, 1999 й. 28 б.

²⁸ Каримов Н. "Қурбон Берегин қисмати" Т., 2006 й. 45 б.

O'zining qisqa umri davomida Mulla Bekjon ko'plab ijodiy ishlarni amalga oshirishga erishdi. Madaniyat va ma'rifat sohasida ma'lumotlar to'plash, nashr qilish, tadqiqot ishlarini olib borish jarayonida "O'talar so'zi", "Xalq adabiyoti", "Xorazm musiqiy tarixchasi", "Kattalar alif-bosi", "O'qish kitobi" "Lotin yozuvi", "O'zbek orfografiyasi haqida ocherklar", "Xorazm tarixi ocherklari", "She'rlar yug'urmi" kabi folklor, musiqa, pedagogika va tilshunoslik, tarix va adabiyot sohalarida asarlar yaratdi. Xorazmdagi dastlabki gazeta "Inqilob quyoshi"ning birinchi mas'ul muharriri sifatida faoliyat ko'rsatdi.

O'sha davrda nashr etilgan "Qizil Xorazm", "Xorazm xabarlari", "Maorif", "Yoshlar ovozi", "Ishchilar tovushi", "Yordam", "Qopqon" kabi gazetalarning nashr bo'lishida asosiy rol o'ynadi. Qog'oz fabrikasini tashkil etish bo'yicha harakat qilib, bu sohada ham ancha ishlarga bosh-qosh bo'ldi. Rus sharqshunoslaridan A.N.Samoylovich bilan hamkorlik qilib, ko'pgina folklor asarlarini va yozma adabiyotga oid materiallarni rus tiliga tarjima qilib, Peterburgda chop etilishga erishdi.

Mulla Bekjonning iqtidor va qobiliyati keng qamrovli bo'lib, musiqashunoslik ilmidan yaxshi boxabar edi. 1923 yilda birinchi musiqa maktabining tashkil etilishiga bosh-qosh bo'lgan. Albatta, maktabni tashkil qilish bilan muammo hal bo'lmas edi. Chunki o'quvchilarga bilim berish uchun asosiy vositalar – o'quv dasturi va darsliklar masalasini yaratish zarur edi. Bu muammoni hal qilish ham Mulla Bekjonning zimmasiga tushdi. Shu boisdan u maktablar uchun darslik, o'quv qo'llanmalari yaratishga kirishadi.

Adibning Muhammad Yusuf Devonzoda bilan hamkorlikda yozgan, 1925 yilda Moskvada chop qilingan "Xorazm musiqiy tarixchasi" kitobi o'zbek musiqashunosligi tarixida alohida o'rin tutadi.

Mulla Bekjonning yuksak xizmatlaridan biri, xonlik tugatilgach, Toshhovli binosida xalq muzeyi tashkil etib, unga rahbarlik qildi va talon-taroj bo'lishi mumkin bo'lgan ko'plab milliy boyliklarni yig'ib, Davlat muzeyini barpo etilishiga ko'maklashdi.

Yosh xivaliklarning asosiy maqsadi milliy davlat tuzish, milliy qadriyatlarini rivojlantirish, dunyoviy bilimlarni o'rganish, shu bilan birga diniy ma'rifatdan ham voz kechmaslik kabi qator tamoyillarni o'zida mujassam etgan bo'lib, bunday g'oyalar sho'ro mafkurasiga zid kelgan edi. Shu sababdan ham Mulla Bekjonning faoliyati sho'ro davrida qoralanib kelindi. O'sha davr ma'rifiy tarixini tadqiq etgan G.M.Bilolov

sho'rolar siyosatiga uyg'un holda Mulla Bekjonni burjua millatchiligi g'oyasini ilgari suruvchi kishi sifatida tilga olib o'tgan²⁹.

Turkiyalik jamoat arbobi Ahmad Zakiy Validiy To'g'onning "Xotiralar" kitobida Mulla Bekjon haqida iliq gaplar aytilgan: – "Mulla Bekjon Xivada zamonaviy madaniyatni rivojlantirish uchun katta fidoyilik ko'rsatdi. Agar Rossiya xalaqit bermaganida, ular yosh Xiva hukumatiga katta xizmat qilgan bo'lur edilar", deyiladi. Mulla Bekjon Zakiy Validiy bilan yaqin tanish bo'lib, 1920-yil oxirlarida Z.Validiy rafiqasi Nafisa xonim va uch oylik o'g'li Irimuhammad bilan Xivaga kelganlarida uning uyida mehmon bo'lishgan. Nafisa xonim qisqa davr mobaynida Xiva maktabida o'qituvchi bo'lib ham ishlagan.

Binobarin, Mulla Bekjonning Turkiya bilan bo'lgan aloqasi, mam-lakatda milliy siyosatni shakllantirish sohasidagi ishlari uning hukumat tarkibidan chiqarilishiga olib keldi.

Ma'lumki, o'sha davrlarda hayot nihoyatda murakkab kechgan. Ko'plab vatanparvar ziyolilarning taqdiri qanday tugaganligi hozirgi kunda barchaga ayon. Bunday qismat Mulla Bekjonni ham chetlab o'tmagan. Uning hayoti fojea bilan yakunlanganligi to'g'risida Z.Validiy o'z xotiralarida: – "Xiva hukumati tarqalgach u Buxoroga bizning oldimizga keldi, ammo rasmiy yo'ldan ayrilmadi, kommunist bo'lib qoldi, nihoyat, 1937-yildagi repressiyalarda Toshkentda qatag'on qilindi" deb yozadi³⁰. Millatimizning faxri bo'lgan bunday vatanparvar inson to'g'risida hozirgacha mukammal ma'lumot beruvchi manba yo'q.

²⁹ Г.М. Билолов. "Культура и просвещение Хоразмской народной республики". Т., "Фан", 1966, 45-бет.

³⁰ Валидий-Тўғон А.З. "Хотиралар", ОФО; "Китап", 1996. 380 б.

MUHAMMAD YUSUF DEVONZODA

– Matyusuf XARRATOV

(1889-1952)

Atoqli sozanda, bastakor, xattot, musiqashunos, ustoz-murabbiy Muhammad Yusuf Devonzoda – Chokar 1889 yilda Xiva shahri yaqinidagi Shayxlar qishlog'ida sozanda va xattot Muhammad Yoqub Xarrot oilasida dunyoga keldi. Ilk ta'limni qishloq maktabida va keyingi tahsilni Xiva madrasasida oldi. Taniqli shoir Avaz O'tar o'g'li bilan bir hujrada yashash va she'r mashq qilish uning adabiyotga bo'lgan ishtiyoqini yanada kuchaytirdi. U Chokar tahallusi bilan g'azallar bitib tanila boshlaganligi va otasidan xattotlikni o'rganganligi sababli Muhammad Rahimxon Soniy saroyiga taklif qilindi.



“Tanbur chertish va Xorazm maqomlarining cholg'u yo'llarini Komil Xorazmiyning katta o'g'li Muhammad Rasul Mirzaboshidan, ashula yo'llarini mashhur hofiz Muhammad Yoqub Fozachidan, g'ijjak va santur chalishni musiqa ustasi Qalandar Do'nmasdan, dutorni Muhammad Sharif Qambardan, garmoni Qurbon sozchidan o'rgandim. Cholg'u asboblarini yasash va ta'mirlash hamda yo'nuvchilik hunarlarini ham bilaman” deb yozadi u o'z tarjimai holida. M.Xarratov o'z otasidan soz o'rganadi va xattotlik bo'yicha ta'lim oladi. O'z navbatida Bobosi Qurbon Xarrot dan xarrotlik (yo'nuvchi, yog'och ustasi) kasblarini ham o'rganadi. U musiqa ilmini egallashga jiddiy harakat qilib, “Xorazm chiziqdari” asosida olti yarim Xorazm maqomini beka mu ko'st ijro qilish mahoratiga ega bo'ldi.

1920-yili Xorazm xalq sho'rolar jumhuriyatining davlat tuzilishida faol qatnashadi. Maorif nozirligining kotibi sifatida tumanlarda maorif organlarini tashkil qilishda bosh-qosh bo'ladi. 1923-yilda Xivada ochilgan musiqa maktabiga asos soladi. Ayni chog'da shu maktab (o'sha davrda M.Xarratov yozuvlarida musiqa texnikumi deb ham nomlangan)ga rahbarlik qiladi.

1925-yili Mulla Bekjon Rahmon o'g'li bilan hamkorlikda “Xorazm musiqiy tarixchasi” nomli kitobni yozib, Moskvada nashr qildiradi.

1928-yilda Samarqandda tashkil qilingan Musiqa va xoreografiya institutiga o'qituvchi-professor sifatida ishga taklif qilinadi. U xalq

musiqalarini to'plash va yozib olish ishlari bilan ham shug'ullanadi. 1931-yilda N.N.Mironov M.Xarratovdan bir qancha ashulalarni notaga yozib oladi va “Xiva ashulalari” nomli to'plamda nashr qildiradi. Shu yili “Notani tartibga solish va mukammallashtirish yo'lida bir tajriba” nomli risola yozib, unda “Xorazm tanbur chizig'i”ni qanday o'rganish va takomillashtirish yo'llari haqida qimmatli fikrlar bildiradi.

1932-1935 yillarda O'zbek dvlrat musiqali teatrida changchi sozanda bo'lib ishlaydi. Chang va qonun cholg'ulari M.Xarratovning eng sevimli asboblaridan bo'lgan. Lekin, ayniqsa, chang cholg'usining diapazoni – tovush ko'lamining cheklanganligi va diatonik tuzilishi unda turli xalqlar asarlarini ijro etishga imkon bermas edi. Bu cholg'uning o'ng'aysiz tomonlaridan yana biri, navbatdagi asarni ijro qilishdan oldin uning har bir torini nayga qarab qaytadan sozlash kerak bo'lgan.

M.Xarratov bu cholg'ularni takomillashtirish ustida uzoq izlanib va sinov uchun ko'plab changlarni o'zi yasab (bunda o'z bobosidan o'rgangan xarrotlik kasbi asqotgan), changni yuqori registrini qo'shimcha torlar hisobiga kengaytirish va uni xromatik tuzilishga o'tkazish bilan yakunlagan. Bunday o'zgarish musiqa jamoatchiligi tomonidan qizg'in ma'qullandi va hozirgi davrimizgacha ham ana shu tuzilishdagi chang asbobi sozandalar tomonidan qo'llanib kelinmoqda.

M.Xarratov 1936-yilda Toshkent davlat konservatoriyasida kompozitsiya bo'yicha tayyorlov bo'limida o'qishga harakat qilgan. Mustaqil ravishda musiqa savodi va solfedjiodan tayyorgarlik ko'rgan.

1937-yilda Moskvada bo'lib o'tgan O'zbekiston san'ati va adabiyoti dekadasida sozanda va bastakor sifatida qatnashadi. Ushbu tadbir sahnasida muvaffaqiyat qozongan “Sayil va kolxoz to'yi” nomli musiqali kompozitsiya M.Xarratov musiqasi asosida sahnalashtirilgan.

1937-yilda Xorazm ashulalaridan 47 tasini notaga olib, mualliflar jamoasi tomonidan 1939-yili nashr qilingan “O'zbek xalq qo'shiqlari”ning 1-jildiga kiritadi.

1938-yili Matyusufning otasi Matyoqub Xarratov qatag'onga uchrab turmada vafot etganidan keyin u qattiq tushkunlikka tushadi. Hayotining qolgan o'n besh yili, umuman, tushkunlik va ziddiyatlardan iborat bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, M.Xarrot Vatan urushi yillarida “Sevikli vatan”, “Qizil qo'shin”, “Bahodir yigitlar” kabi jangovar vatanparvarlik ruhidagi qo'shiqlarni yaratgan. Keyinchalik tinch mehnat jabhalariga bag'ishlangan “Paxta teremiz”, “May bayrami”, “Kolxoz marshi”,


“Pioner marshi”, “Po‘lat qush”, “Maktab bolalari”, “Komsomol marshi”, “Farhod ufori” qo‘shiqlari shular jumlasidandir. Uning lirik qo‘shiqlari oshiqning ichki tuyg‘ulari va kechinmalarini ifodalasa, boshqa mavzudagi ashulalari zavq-shavqqa to‘la Xorazm lapar va yallalarini aks ettiradi. “O‘zing”, “O‘limgaysiz”, “Ey mehribonim”, “Mustahzod” kabi asarlari hozirgi kungacha xalqimiz tomonidan sevimli kuylanib kelinmoqda.

Chokar shoir sifatida uchta devon yaratib, boy adabiy meros qoldirgan. Uning “G‘azaliyoti Chokar” nomli birinchi devonida 4288 misradan iborat 283 g‘azali, ikkinchi devonida 5044 misradan iborat 389 g‘azali va uchinchi devonida 856 misradan iborat 100 dan ortiq g‘azallari o‘rin olgan. Shuningdek, shoirning Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida 125 sahifadan iborat qo‘lyozma daf-tari ham muhim manba sifatida saqlangan bo‘lib, unda so‘nggi yillarda yaratgan she‘r va g‘azallari hamda estaliklari aks etgan.

U davlat va jamoat ahamiyatiga molik xizmatlari uchun 1921-yilda Xorazm xalq respublikasining “Qizil bayroq” va 1924-yilda “Mehnat qizil bayrog‘i” ordenlari bilan mukofotlandi. Madaniyat taraqqiyotidagi barakali xizmatlari hamda yosh sozandalarni tarbiyalashdagi ishlari uchun unga 1944-yilda “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi” unvoni berilgan. M.Xarratov 1952 yili oltmish uch yoshida Toshkent shahrida vafot etgan.

M.Xarratovning Toxirjon, Komiljon, Foziljon ismli o‘g‘illari va Muslima ismli qizlari bo‘lib, Toxirjon fizika o‘qituvchisi bo‘lgan va qolgan farzandlari san‘at yo‘lini tutishgan. Komiljon Xiva xalq teatrida changchi sozanda bo‘lib ishlagan va Ikkinchi jahon urushida bedarak yo‘qolgan. Foziljon qator yillar davomida ijodiy jamoalarda changchi sozanda bo‘lib ishlash bilan birgalikda Toshkent davlat konserva-toriyasida dotsent lavozimida talabalarga chang san‘ati sirlarini ham o‘rgatgan va 1971-yilda Toshkentda vafot etgan. Muslima opa ko‘p yillar davomida teatr aktrisasi bo‘lib ishlagan. Vatan urushi front konsert brigadasining faxriysi sifatida faoliyat ko‘rsatib kelgan va Toshkent shahrida 1990-yili olamdan o‘tgan.

Xarratovlar sulolasining kenja vakili Abror Xarratov katta bobo-sidan yodgor qolgan chang sozini mukammal o‘rganib, “Navro‘z”, “Yangi avlod” Respublika ko‘rik tanlovlarida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan va Xarratovlar sulolasi ishini davom ettirmoqda.




2 Musiqyshunoslar ustози Pahlavon Niyoz mirzaboshi Komil Xorazmiy




1 Xiva xoni Muhammad Rahimxon -soniy Feruz




3 Mashhur musiqiyshunos Muhammad Rasul
Mirzo-Kamil Xorazmiy o'g'li




4 Tanburchi va xattot Muhammad Yoqub
Xarrot



5 Mashhur xattot, muhr o'yuvchi
Xudoybergan Muhrkan



6 Mashhur bulomonchi Xudoybergan
Qurbonov - Xudak ota



7 Qurban Ismoilov sozchi va shoir



8 Asfandiyorxon o'g'li Temurg'oziy to'ra bilan

MUNDARIJA

| | |
|---|----|
| O.Matyoqubov. XX asr o'zbek musiqashunosligining ilk namunasi (so'z boshi o'rnida)..... | 3 |
| Xorazm musiqiysining birinchi davri..... | 14 |
| Xorazm musiqiysining ikkichi davri..... | 15 |
| “Xorazm chizig'i”ning nashri, taraqqiyoti va isloh etilishi..... | 21 |
| Tanbur maqomining usullari..... | 28 |
| Tanburning sozlanishi..... | 30 |
| Dutor nag'malari..... | 32 |
| Dutor maqomlari..... | 33 |
| Tarjimayi hollar..... | 36 |
| Risoladagi murakkab so'zlar izohi va lug'at..... | 51 |
| <i>Mualliflar haqida ma'lumotlar</i> | |
| Mulla Bekjon Rahmono'g'li..... | 54 |
| Muhammad Yusuf Devonzoda..... | 58 |
| Rasmlar ilovasi..... | 61 |

84(5Ÿ)1

X

Xorazm musiqiy tarixchasi / Mulla Bekjon Rahmon o'g'li,
Muhammad Yusuf Devonzoda. Nashrga tayyorlovchi Botir
Matyoqubov; mas'ul muharrir Hamidulla Boltaboev. – Toshkent:
MUMTOZ SO'Z, 2014. – 64 b.

UO'D: 821.512.133

KBK: 84(5Ÿ)1

ISBN 978-9943-398-80-7

Ilmiy-ommabop nashr

Nashriyot muharriri Fayzi Shohismoil
Musahhiha Hilola Boltaboeva
Texnik muharrir Behzod Boltaboev

“MUMTOZ SO'Z”
mas'uliyati cheklangan jamiyati
nashriyoti

Manzil: Toshkent, Navoiy ko'chasi, 69.
Tel.: 241-60-33

Nashriyot litsenziyasi AI № 103. 15.07.2008
Bosishga ruxsat etildi 04.08.2014
Qog'oz bichimi 60x84 1/32. Ofset qog'oz
Times New Roman garniturası. Hisob-nashriyot tobog'I 3,05.
Shartli bosma tobog'I 4,0. Adadi 300
Bahosi kelishilgan narxda

“MUMTOZ SO'Z”
mas'uliyati cheklangan jamiyati
matbaa bo'limida chop etildi.
Manzil: Toshkent, Navoiy ko'chasi, 69.
Tel.: 241-81-20

MULLA BEKJON RAHMON O'G'LI,
MUHAMMAD YUSUF DEVONZODA

XORAZM *مقام رازم*
MUSIQIY TARIXCHASI *پازکوی*

The image shows a page of musical notation on a blue background. The notation is written in white and green ink. A large, stylized green treble clef is prominent in the lower-left quadrant. The notation consists of several staves with notes, rests, and other musical symbols. There are also some handwritten-style text elements in green and white interspersed with the notation. The overall design is artistic and thematic, reflecting the book's focus on the history of music in Xorazm.



ISBN 978 9943-398-87-0



9 789943 398870